

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

BAFOYEV FARRUX SADRIDINOVICH

**O‘ZBEK VA NEMIS MAQOLLARI
QIYOSIY TAHLILI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar:
Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent A. Tilavov**

Toshkent-2014

Mundarija

Kirish	3
I bob. Maqollar va ularning tadqiqi haqida	
1.1. Maqol janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	8
1.2. O‘zbek va nemis maqollarining o‘rganilish tarixidan.....	19
II bob. O‘zbek va nemis maqollari mavzu va badiiyati xususida	
2.1. O‘zbek va nemis maqollarining tematik qiyosi.....	32
2.2 O‘zbek va nemis maqollari badiiyati qiyosi.....	43
Xulosa	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	59

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi xalqning buyuk tarixini, urf-odatlarini-yu an‘analarini o‘zida saqlab keladigan bebaho ma‘naviy merosdir. Uni asrab-avaylash, avlodlardan avlodlarga yetkazish xalqning o‘z tarixi va buyuk ajdodlariga bo‘lgan cheksiz hurmatning, e‘zozning ifodasidir. Xuddu shu nuqtai nazardan o‘zbek xalq og‘zaki asarlarini nashr qilish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini anglashdagi ijobiy o‘zgarishlar tashabbuskori yurtboshimiz Islom Karimov hisoblanadilar. Dastlab, 1990 yilda, hali mustaqillik qo‘lga kiritilmasdan avval tasdiqlangan Navro‘z bayrami umumxalq tantanasi darajasida nishonlandi. Keyinchalik “Alpomish” dostonining 1000 yilligi, dastlab mamlakatimizda, so‘ng jahon miqyosida nishonlandi. Prezidentimizning 2008-yil “Ma‘naviyat” nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” kitobida shunday deyiladi: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuvlar va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asrlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir”¹. Bu e‘tibor va yuksak baho ma‘naviy merosimizga, ajdodlar merosiga bo‘lgan katta hurmatning ifodachisidir.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrda “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 220-son qarorida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish, folklorshunoslik taraqqiyotini ta‘minlash bilan bog‘liq bir qator tadbirlar belgilangan. Mazkur tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi xalq og‘zaki ijodini o‘rganish sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu borada davlatimiz Prezidenti Istiqlol mafkurasi g‘oyalarini yaratish jarayonida har qanday siyosat va shaxsiy manfaatlardan ustun turadigan folklor merosidan foydalanish zarurligiga alohida to‘xtalib **“Yurtimiz**

¹ Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 31

yoshlarini o‘zbek folklorining hayotbaxsh qadriyatlaridan bahramand etish ularni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega”¹ deb ta’kidlaganlar. Folklor janrlari sirasiga esa tarbiyaning asosiy vositasi hisoblangan, kishilarni hayot voqeliklaridan chiqarilgan xulosalar orqali tarbiyalovchi xalq maqollari ham kiradi.

Ma’lumki, maqollar xalq og‘zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi. Ular o‘zining qisqa shakli va chuqur ma’nosi bilan har birimiz nutqimizda qo‘llaydigan bebaho vositaga aylangan. Maqol janri o‘z xususiyatiga ko‘ra xalqaro janr sanaladi. Ya’ni u dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida uchraydi. Ana shu holatdan kelib chiqib, ushbu ishda o‘zbek va nemis xalq og‘zaki ijodida uchraydigan maqollar o‘zaro qiyoslanadi. Ularni o‘zaro qiyosiy o‘rganish, birinchidan, nemis va o‘zbek xalqlarining urf-odatlaridagi, an’ana va qadriyatlaridagi mushtarak hamda o‘ziga xos jihatlarni kashf etishga, shu orqali o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Ikkinchidan, nemis maqollari orasidan o‘zbek maqollari orasida uchramaydigan maqollarni topish hamda ularda ifoda etilgan ibratli fikrlardan nuqtda qo‘llash imkonini beradi. Uchinchidan, ularni asl matnidan tarjima qilish orqali nemis va o‘zbek tillarining sintaktik sturukturasi o‘zaro qiyoslanadi. Bu esa hozirgi kunda dolzarb muammolardan bo‘lgan til o‘rganishda katta yordam berishi, chet tilida ushbu maqollardan qo‘llash esa nutqning ta’sirchan va jozibali bo‘lishini ta’minlashi, shubhasizdir. Shuningdek, hozirgi kunda “Kompyuter lingvistikasi” fani doirasida qilinayotgan tarjima va boshqa maqsadlar uchun kompyuterda o‘zbek tili bazasini yaratish ishida boshqa tildagi frazeologizmlar, barqaror birikmalarning o‘zbek tilidagi eng muqobil variantlarini topish va ulardan foydalanishda yordamga keladi.

Tadqiqotning manbasi. Bitiruv malakaviy ishining manbasi o‘zbek va nemis xalq maqollarining nashrlari. Jumladan, o‘zbek maqollari to‘plamlari (“O‘zbekcha otalar so‘zi”, “O‘zbek xalq maqollari”(ushbu nom bilan nashr etilgan turli maqollar to‘plamlari)), nemis xalq maqollari e’lon qilingan to‘plamlar “Sprichwörter Пословицы Мақоллар”, “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar”, “Sprichwörter

¹ Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. . – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 31

101 Proverbs Пословицы Мақоллар”, “Немисча-ўзбекча-русча мақол ва маталлар луғати”, “Sprichwörter-lexikon”, “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati”, “<http://www.alle-sprichwoerter.de>” saytida e‘lon qilingan nemis maqollari.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqot ishining maqsadi maqol janri va uning paydo bo‘lishi haqidagi mulohazalarni o‘rganish, uning xalqaro janrligiga e‘tiborni qaratib, o‘zbek va nemis xalq maqollarini o‘zaro qiyoslash hisoblanadi. Xalq ijodiyoti asarlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish masalasida V.M. Jirmunskiyning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Uning ta’kidlashicha, turli xalqlar folkloridagi ma’no jihatdan o‘xshash bir xil asar “... o‘zining ijod qilgan xalqiga xos tarixiy, psixologik va sotsial xususiyatlarni, o‘sha xalqning ijtimoiy ideallari hamda badiiyatidagi milliy alohidaliklarni, binobarin, o‘sha xalqning milliy qiyofasini namoyon qiladi. Ularni qiyoslash tamoyili asosida o‘rganish usuli o‘sha milliy o‘ziga xoslikning tarixiy asoslarini chuqur aniqlash imkonini beradi”¹ Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

O‘zbek va nemis maqollarini o‘zaro qiyoslashda ikki jihatga e‘tibor qaratiladi:

- o‘zbek va nemis maqollarining tematik qiyosi. Bunda manba sifatida olingan maqollar mavzu jihatidan guruhlariga ajratiladi. Ular orasidagi har ikkala xalq maqollarida eng ko‘p uchraydigan mavzular va aksincha, kam uchraydigan mavzularni aniqlash va uning sababini izohlash;
- o‘zbek va nemis xalq maqollarining o‘zaro muqobillari, ulardagi o‘ziga xosliklarni aniqlash;
- o‘zbek va nemis maqollari badiiyatini qiyoslash. Bunda esa har ikkala xalq maqollarida uchraydigan badiiy vositalar (o‘xshatish, mubolag‘a, majoz, jonlantirish, ramz) o‘zaro qiyoslanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “O‘zbek va nemis maqollari o‘zaro qiyosi” mavzusida maxsus tadqiqot olib borilmagan. Ushbu mavzuga yaqin kichik

¹ Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л.:Наука,1979. – С.186

tadqiqotlar ya'ni ilmiy maqolalar¹ yozilgan. Ularda turli xalqlar maqollari orasidagi o'zaro muqobillar, ularda e'tiborga olingan jihatlariga urg'u berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat. Birinchi bob "Maqollar va ularning tadqiqi" deb nomlanib, u ikki faslni o'z ichiga oladi:

1. Maqol janri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbek va nemis maqollarining o'rganilish tarixidan.

Ushbu fasllarda maqol janri, uning kelib chiqishiga old qarashlar hamda ularning kimlar tomonidan o'rganilganiga e'tibor qaratilgan.

Ikkinchi bob esa "O'zbek va nemis maqollari mazvu va badiiyati xususida" deb nomlanadi. U ham o'z navbatida ikki faslni o'z ichiga oladi.

1. O'zbek va nemis maqollarining tematik qiyosi.
2. O'zbek va nemis maqollari badiiyati qiyosi.

Birinchi faslda xalq maqollaridagi qamrab olingan mavzular, bir xil mavzudagi muqobillar va ularning paydo bo'lish sabablari izohlanadi. Ikkinchi faslda esa maqollardagi badiiy tasvir vositalarga e'tibor qaratilib, o'zaro qiyoslanadi.

Ishning e'lon qilinganlik darajasi. Mazkur mavzuga oid bir qator maqolalar universitet miqyosidagi va respublika ilmiy konfrensiyalarida e'lon qilingan. Jumladan, 2013-yildagi "O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari II" ilmiy maqolalar to'plamida "O'zbek va nemis maqollari qiyosiy tahlili", "Yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimi – O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi to'plamida "Tarbiyada

¹ Yaqubova M. O'zbek maqollarining g'arb xalqlari folkloridagi ma'nodosh muqobillari // Ilm sarchashmalari 2013 йил 7-8 сон; "Leksikografiya va frazeografiyaning dolzarb muammolari(nazariya va amaliyot)" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2014.

xalq og‘zaki ijodining o‘rni”, TDTU professor-o‘qituvchilarining ilmiy ishlar to‘plamida “O‘zbek va nemis maqollarida tarbiya masalasi”, “XXI asr – intellektual avlod asri” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi to‘plamida “Maqollar xalqaro janr sifatida” nomli maqolalar yoritilgan.

I BOB. MAQOLLAR VA ULARNING TADQIQI HAQIDA

1.1. Maqol janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Xalq og‘zaki ijodi xalqning xalq bo‘lib shakllanish va rivojlanish davridan bugungacha bo‘lgan bosib o‘tgan yo‘li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos bir madaniyat ko‘zgusidir. Ular har bir xalqning qon-qoniga singib ketgan, hayot tarziga aylangan boy ma‘naviy merosi, o‘lmas qadriyatlari hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining asrlar osha, avloddan-avlodga, tillardan tillarga o‘tib, kamol topib kelayotgan o‘ziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Ular ko‘p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi.

Xalq og‘zaki ijodidagi har bir janr xalqning intellektual salohiyatini, o‘zligini, o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi vositadir. Masalan, xalq marosimlarida bajarilgan har bir amallar, irimlarda asrlar davomida amal qilib kelingan urf-odatlar, e‘tiqodlar yotsa, topishmoqlarda xalqning donishmandligi, donoligi, topqirligi, hozirjavoblighi; qo‘shiqlarda xalqning yuraklaridagi orzu-umidlari, intim kechinmalari aks etsa, maqollarda esa xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari, inkor etib bo‘lmas hayot haqiqati tarzida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham ulug‘ rus yozuvchisi L.N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to‘xtalib: **“Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman”**- deb yozgan edi. Adib M.Sholoxov esa **“Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko‘chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko‘rinmaydi”** deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Maqollar uni yaratgan xalqning paydo bo‘lishi tarixi qadar ko‘hnadir. Chunki ular xalqning hayot tajribalari davomida orttirgan xulosalarini ifodalaydi. Rus paremiologi I.M.Snergiyev maqollarning paydo bo‘lish jarayonini shunday

izohlaydi: “Bir kishi tomonidan tasodifan aytilgan va ko‘pchilik tomonidan tasdiqlangan hikmatli so‘z umum mulkiga aylanib qolgan; bu so‘zni dastlab aytgan kishining nomi yo‘qolib ketgan, ularning so‘zi esa el og‘zida saqlanib qolgan”¹. (Bu o‘rinda Snegiryev tasodif deganda hayot tajribasida kuzatilib, xulosalangan fikrni bexosdan tilga chiqarish, nutqda ishlatishni nazarda tutmoqda. Boisi, maqollarning hech biri tasodif aytilgan so‘z emas, balki “yetti o‘lchab, bir kesilgan” xulosadir).

Turkman paremiologi B. M. Garriyev esa bu fikrni yanada to‘ldirib, maqollar dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir nechagina so‘z bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi tomonidan to‘qib chiqarilgan, o‘rinli ifodalangan bu fikr keyinchalik ko‘pchilik tomonidan qabul qilinishi, qo‘llanishi oqibatida yuzaga kelishini qayd etib o‘tadi.²

O‘zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo‘lish jarayonini: ”Xalqning qalbida ibratli fikr, hayot haqidagi xulosalar “pishib” yetilib turgan bo‘ladi. Ko‘pni ko‘rgan, zukko va gapga chechan bir odam uni bir necha so‘z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo‘ladi”,- deb izohlaydi. Haqiqatdan ham, aslida avval og‘zaki nutqda paydo bo‘luvchi maqollar og‘zaki nutqimizda keng qo‘llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon, teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, “So‘z ko‘rki- maqol ” degan gap ham bejiz emas. “Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi”³

Bundan tashqari maqollar yozma asarlar tarkibida ham uchraydi. Ularning asarlar tarkibida qo‘llanishi, bir tomondan, ijodkor ko‘zda tutgan ma‘noni yaqqolroq ifodalashga yordam bersa, boshqa tomondan, shoir yoki yozuvchini xalqqa yaqinlashtiradi, asarning xalqchilligini taminlaydi.

Shuhrat Shorahmedov maqollarning yozma badiiy adabiyotda qo‘llanishini ularning saqlanib qolishidagi muhim omil deb hisoblaydi. Qolaversa, folkrolizm

¹ Снегирев И.М. Русские народные пословицы и притчи-М., 1948. – С. 41

² Гарриев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки. – А., 1961. – С. 16.

³ Кўшоқов М. Сўз кўрки мақол// Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55 (5872) - Б. 4

tarzida yetib kelgan maqollar paremiologiyada maqolning taxminan qaysi davrda paydo bo'lganligini aniqlash imkonini ham beradi. Chunki maqol yozma adabiyotga kirib kelishidan ancha oldin vujudga kelgan bo'ladi.

Badiiy asarlar tarkibidagi folklor materiallari "folklorizm" atamasi bilan yuritiladi. Bahodir Sarimsoqov badiiy asarlar tarkibida uchrovchi paremiologik birliklarni "**oddiy folklorizm**" deb ataydi. "*Oddiy folklorizm ... biror yozuvchi yoki shoir ijodida xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, og'zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlarning qo'llanishidan tashkil topadi*"¹. Bu orqali ijodkor uslubining ta'sirchanligiga erishadi. Yana shuningdek, "oddiy folklorizmlar ham yozuvchi yoki shoirning xalq ijodiga bo'lgan munosabatini, uning folklorni tushunish va bilish darajasini, bu bebaho xazinadan o'z ijodida foydalana olish mahoratini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi"²

Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan quyidagi xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi:

- 1) ifoda tarzidagi o'ziga xoslik. Maqol o'zining shakliy ixchamligi va mazmuniy teranligi bilan ajralib turadi;
- 2) ma'nolarini ifodalashdagi xususiyat. Maqolda ham o'z, ham ko'chma ma'no saqlangan bo'ladi;
- 3) qo'llanish doirasidagi belgisi. Maqollarning qo'llanilish doirasi ancha keng. Uni ishlab chiqarish sohasida ham, axloqiy-ma'naviy sohada ham muayyan harakatni bajarishga da'vat yoki harakat mavridini belgilashda ham qo'llash mumkin.³

Shulardan kelib chiqqan holda maqollarning quyidagi janr xususiyatlarini keltirib o'tish mumkin:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan bo'ladi.
2. Maqollar mazmunan serko'lam va chuqur ma'noni o'zida aks ettiradi.

¹ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980 йил 4-сон Б. 37-45

² Ўша манба. Б.40.

³ Абдуллаев Х. Д. Халқ мақолларининг "Қутадғу билиг" поетикасидаги ўрни ва бадий-эстетик функциялари – филол.фан. ном. Илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2005

3. Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy usulda yuzaga kelgan bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Masalan: "Ko'za kunda emas, kunida sinadi".

4. Maqollarda hayotiy voqea va hodisa haqida qat'iy hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.

5. Maqollar shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazaridan umumlashtiriladi.

6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi¹.

Maqollarning shaklan va mazmunan ushbu xususiyatlarga ega ekanligi, foydalanuvchining ulardan ko'proq foydalana olishiga katta yordam beradi. Chunki bir necha so'zdan iborat bo'lgan bir maqol orqali biz o'z fikrimizni aniq, tushunarli, ta'sirchan qilib tinglovchiga etkaza olishimiz mumkin. So'zlovchi nuqtida qo'llangan maqolning tinglovchiga ta'siri haqida folklorshunos Oxunjon Safarov shunday yozadi: "*Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg'ulariga ta'sir qilib, fikrini uyg'otadi, adolatli xulosaga kelishi va hukm chiqarishini ta'minlaydi. Maqollarning axloqiy hukm sifatidagi mohiyati shunda ko'rinadi. Zero, maqollarda hukmdan kechinmaga o'tiladi*"² (Bu yerda muallif "hukmdan kechinmaga o'tish" deganda maqolning kishiga ta'sirini nazarda tutmoqda.)

Maqollar, odatda, biz uchun o'z fikrimizni isbotlovchi dalil vazifasini o'taydi. Shu ma'noda "*Xalq maqollari har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan o'ziga xos axloqiy qoidalar kodeksidir*"³

Ammo shunday maqollarni uchratamizki, ular mazmunan bir-birini inkor etadi. Ularni qaysi biriga "suyanish" ni, amal qilishni bilmay qolamiz. Ushbu holat ularning yaratilish va qo'llanilish xususiyati bilan bog'liq. Bu xususiyatga biz ba'zi holatda e'tibor qilsak, boshqa holatda e'tibordan chetda qoladi. Bu xususiyatni umumiylik (doimiylik) va vaziyatlilik (cheklanganlik) belgisi deb atasak maqsadga

¹ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – B. 65.

² Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiq, 2010. – B.293.

³ Пословицы и поговорки народов Востока. М., 1961.- С.11

muvofig bo‘ladi. Misol uchun shunday maqollar borki, har hududda, har zamonda, har vaziyatda qo‘llanilishi mumkin. Ular makon, zamon, vaqt tanlamaydi.

Aytilgan so‘z-otilgan o‘q.

Izoh: Maqolda so‘zning qudrati hamda so‘zni qo‘llashda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga, o‘ylab gapirishga undaladi, hukm sifatida “aytilgan so‘z xuddi otilgan o‘qdek, uni orqaga qaytarishning iloji yo‘q, shuning uchun so‘zni gapirishda xuddi o‘qni otgandek ehtiyotkorona harakat qilish kerak” degan ma’nolarni beradi. Bu maqolni biz har qaysi zamonda, har vaqt va har joyda, har kimga nisbatan ishlatishimiz mumkin. Bu ularning umumiylik xususiyatidir.

Yana shunday maqollar borki, biz ularni makon va zamonga nisbatan birdek qo‘llay olmaymiz, ba’zan esa yuqorida aytib o‘tganimizdek ular bir-birini inkor etadi va ularni qo‘llashda ma’lum bir vaziyatni talab etadi. Endi esa ushbu xususiyatdagi maqollarga misollar keltirib o‘tamiz. T.Mirzaev boshchiligida tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobining (Toshkent, 2003) kirish qismida do‘stlikka oid ikki maqol keltiriladi va ular bir qarashda bir-birini inkor etadi. Ushbu holatni muallif shunday izohlaydi:

“Hisoblashgan do‘st emas. Ba’zan kishilar arzimasi xizmatlarini ham do‘stiga minnat qilishadi. Bu yerda so‘z o‘sha haqda ketmoqda.

Hisobli do‘st ayrilmas.

Bu maqolda esa do‘st kishi do‘stning yaxshiliklarini unutmasligi, doimo yodda tutishi kerak degan ma’no ifodalanmoqda”

Shuningdek:

Yetti o‘lchab bir kes.

Avval o‘yla, keyin so‘yla.

Maqollarida inson har bir qiladigan ishini uzoq o‘ylab, yaxshilab mulohaza qilib bajarishi kerakligi uqtiriladi.

“O‘ychi o‘yini o‘ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi” maqolida esa uzoq o‘ylash, umuman, o‘ylab o‘tirmasdan tavakkal, taxmin qilish orqali ham ish bitishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu maqol zahirida jasorat, qat’iyatli bo‘lishga tashviq ham bor.

Yana shunday maqollar borki, ular faqat ba'zi vaqtlarda, ba'zi toifa kishilariga nisbatan qo'llanadi. Jumladan, bunga misol qilib **“It vafo, xotin jafo”** maqolini olish mumkin. Maqolni birinchi bor o'qigan yoki eshitganimizda “Nega endi it vafoli-yu xotin jafoli bo'ladi?”, “Nega endi xalqimizda , hattoki, turmush qurganiga bir necha oy bo'lganda yoridan ajralib beva qolgan va butun umr yoriga sadoqatli bo'lib, vafo timsoliga aylangan va aylanayotgan ayollarimiz bo'la turib, qadimdan ayolni qadrlagan, e'zozlagan ajdodlarimiz hayot tajribalarida bunday maqol qo'llangan? ” degan savol paydo bo'ladi. Aytish kerakki, tarixda yuqorida qayd etilgan vafoli va oqila ayollar bilan bir qatorda o'z ayollik nomiga dog' tushirgan ayollar ham bo'lgan. Bu maqol aynan ana shunday ayollarga nisbatan aytilgan va qo'llangan desak xato bo'lmaydi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu maqollar ularni qo'llovchi shaxsdan vaziyatga qarab ishlatishni talab qiladi.

Shunday qilib, maqollar makon va zamon tanlamaydigan, hamma vaziyatda bir xil qo'llanadigan umumiylik, ma'lum bir vaziyatda qo'llanadigan, qo'llanish doirasi cheklangan vaziyatlilik yoki cheklanganlik xususiyatlariga ega bo'ladi. Ushbu xususiyatlarni bilishimiz bebaho ma'naviy boyligimiz bo'lgan maqollarimizni to'g'ri tushuna olishimizga va ulardan to'g'ri foydalanishimizga imkon beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan bir necha spetifik xususiyatlardan tashqari, maqollar folklorning boshqa janrlari uchun xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ham ega. Shunday xususiyatlardan eng muhimi – maqolning juda sekin yaratilishi va yo'qolish xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat esa bevosita maqol mazmunining shakliy jihatiga uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi.

Ma'lumki, har qanday fikr ibratli bo'la olmaydi va har qanday ibratli fikr maqol bo'la olmaydi. Shunday ekan ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun ayrim shartlar mavjud. Ulardan biri – maqolda aylanuvchi fikr xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida sinalgan bo'lishi lozim. Ana o'shanda u fikr ibratlilik kasb etadi, kishilarni ishontira oladi. Ikkinchidan, maqolda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etishi lozim. Uchinchidan, har ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan krestall shaklga ega

bo‘lishi kerak. Mana shu uch shart yuzaga chiqqandagina, imratomuz fikr maqolga aylanadi.

Maqol o‘z tabiatiga ko‘ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o‘z maqollariga ega bo‘lmagan xalqning o‘zi yo‘q. O‘zbeklarda “**maqol**” (arabcha قَوْل - qavlun ya’ni , so‘z), tojiklarda “**zarbulmasal**”, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql, turklarda “**ato so‘zi**”, ruslarda “**poslovitsa (пословица)**”, nemislarda “**spichwort**” atamaları bilan yuritiladi. Ko‘plab xalqlar tillaridagi maqolni anglatuvchi atamalar mazmuniga e’tibor berilsa, barchsining o‘zagida “so‘z” ma’nosi borligini kuzatish mumkin. Masalan “пословица”(слова- so‘z), turklardagi “ato so‘zi”(otalar so‘zi), nemislardagi “sprichwort” (wort- so‘z). Ular o‘zgidagi “so‘z” orqali esa “nasihat”, “hikmat”, “aqli so‘z” ma’nosi anglashiladi.

Maqol atamasini, janr sifatida u anglatgan ma’no va xususiyatlarini turli olimlar turlicha izohlaydi. Sh Imyaminova. Sh.Kamolovalar o‘zlarining “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati” kitobiga yozgan so‘zboshisida bir necha olimlar fikrini keltirib o‘tadi: “O.S.Axmanova, maqolni “*badiiy tugallangan hikmatli so‘z, kinoyali fikrga, odatda, qofiyador ohang hamda fonetik shaklga egadir*” deb ta’kidlaydi.¹ Uning fikriga qo‘shilgan R.Konrad esa maqolni “*Hayotiy tajribalarga asoslangan qisqa, aniq va xalq og‘zaki ijodiga asosan paydo bo‘lgan fikrlardir, ammo uning muallifi noaniq bo‘ladi*”² deb qayd etib o‘tadi. Ushbu ta’rif aniq, sodda ta’rifdir.

T.Levondovskiy maqol va matallar muammosini ko‘p o‘rgangan olim hisoblanadi. Uning fikricha “*Maqol butun bir ma’noli jipslashgan gaplardan tashkil topgan aniq fikrlar hamda qarashlarni ifodalaydi va o‘zgarmasdir, shu bilan birga tilning tez-tez qo‘llanuvchi ijtimoiy (jamiyat) mulkidir*”. “Maqol – bu

¹ Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh Imyaminova. Sh.Kamolova. – T.:MUMTOZ SO‘Z, 2013. – B.4-5

² Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini (Hrsg. R. Conrad) – 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – S.228

hayot donishmandligi sifatida namoyon bo‘luvchi ibratli fikrga boy birikma(ibora) dir va ko‘pincha ko‘chma ma’noga (metaforik) ega bo‘ladi”³.

M.D.Stepanova hamda I.I Chernishyovalar ham boshqa tilshunos olimlar fikriga qo‘shilgan holda shunday yozadilar: *“Maqollar xalq og‘zaki ijodida hosil bo‘ladi. Ularning uyushqoq shakli, ya’ni ibratli ma’nosi tufayli hamda ijodkorlar tomonidan shakl berilishi sababli ular kichik poeziyaning bir qismiga o‘xshab ketadi”* deb ta’kidlaydilar.

O‘zbek tilida maqollar turli davrlarda turli nomlar bilan atalib kelingan. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘ati turk” da “saw” so‘zning bir necha ma’nosini beradi. Bular orasida “otalar so‘zi” ni anglatuvchi “saw” so‘zi aynan maqol janriga to‘g‘ri keladi. “Devon”da “saw” ning 260 dan ortiq namunalari berilgan.

O‘zbek adabiyotining mumtoz davriga kelib esa maqol ma’nosida “masal” atamasining keng istemolda bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Mumtoz adabiyotdagi she’riy asarlarda maqol qo‘llash san’atining *“irsoli masal”* deb atalishi ham bejiz emas.

**Yetti jon og‘zimakim, chiqmas uyidin ul hur,
Chiqmag‘on jondin umid-ushbu masaldur mashhur.**

Keying davrlarda esa maqol, shuningdek, naql, hikmat, o‘git, tanbeh, donolar so‘zi, mashoyihlar so‘zi, zarbulmasal, maqol kabi nomlar bilan atalgan. Bugungi kundagi maqol atamasi XX asrdan boshlab o‘zbek paremiologiyasidagi turg‘un atamaga aylandi va u maqol janriga eng munosib nom sifatida qo‘llanilmoqda.

Nemis tilida maqolga nisbatan qo‘llanadigan “sprichwort” termini, ushbu terminning kelib chiqish tarixi va u anglatgan ma’noni nemis olimi **F.Zayler** chuqur o‘rgangan. U o‘zining keng hajmdagi asari bo‘lmish **“Ne’mischa maqollar ta’limoti”** asarini frazeologiya muammolariga bag‘ishlaydi. U maqol so‘zining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: *“Maqol o‘rta nemis tilida ham “Sprichwort” bo‘lgan va u “men gapiraman” ma’nosini anglatgan. Har bir maqol*

³ Qarang: Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh.Imyaminova. Sh.Kamolova. – T.:MUMTOZ SO‘Z, 2013. – B.4-5

haqiqiy xalq soʻzi boʻlishi kerak. Koʻpgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil boʻlib, keyinchalik tez-tez shevalarda koʻrina boshlaganlar¹”.

Sh Imyaminova. Sh.Kamolovalar nemis tilidagi maqollarning kelib chiqishida asosan qadimgi german mifologiyasi oʻz taʼsirini oʻtkazganligini, bundan tashqari xalqning din haqidagi qarashlari, ularning dostonlari, afsonalari asosida ham maqollar shakllana borganligini, shuningdek, qadimgi german urf-odatlarini maqollarning gullab-yashlashiga oʻz taʼsirini oʻtkazganligini taʼkidlab oʻtadilar. Xuddi oʻzbek adabiyoti singari nemis yozma adabiyotida ham yozuvchi, shoirlar nemis maqollaridan foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, buyuk nemis yozuvchisi Geotening “Faust” asarida shunday misra keladi:

Grau, teurer Freund, ist alle Theorie,

Und Grun des Lebens goldner Baum (J. W. Goethe, Faust, S. 122)

E.Vohidov tarjimasi:

Nazariya – quruq ogʻochdir,

Ammo yashnar hayot daraxti. (Faust, b. 60)

Yuqoridagi qanotli soʻz oʻzbek tiliga Posho Ali Usmon tomonidan shunday tarjima qilingan:

Nazariya, doʻstim, quruq, yoʻq gashti,

Yashildir, hayotning oltin daraxti [Faust, S. 79]

Bunday misollarni yana koʻplab kuzatish mumkin. Ularda nemis xalqining oʻziga xos fikrlashi, ibratli hayot xulosalarini kuzatishimiz mumkin.

Oʻrni kelganda shuni ham aytib oʻtish kerakki, maqolning juda keskinlik bilan emas sekinlik bilan yaratilish va oʻlish xususiyati nisbiy xarakterga ega. Chunki maqollarning oʻz mazmunini, koʻpincha, oʻz shaklini saqlab qolinishi ham jamiyat

¹ Qarang: Nemischa-oʻzbekcha maqol va matallar lugʻati. Tuzuvchilar: Sh Imyaminova. Sh.Kamolova. – T.:MUMTOZ SOʻZ, 2013. – B.4-5

strukturasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning turg'un yoki noturg'unlik xarakteri bilan jambarchas bog'langandir. Ijtimiy hayotning o'zgarishi bilan bog'liq holda maqolda ifodalangan maznun o'zgarib boradi: yo torayadi, yo kengayadi, boshqacha mazmun kasb etadi. Bu narsa o'z navbatida maqolning ikkinchi bir xususiyatini yuzaga keltirib chiqaradi. Bu xususiyat maqolning jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan juda va bevosita bog'lanishga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Bu narsa, birinchidan, maqollarda turli ijtimoiy munosabatlarning xalqning axloqiy normalari hamda e'tiqodlarining, maishiy turmushi va mehnati, sevgisi va nafrati, ozod hayot uchun intilishlarining obyektiv, ixcham va lo'nda aks etganligida ko'rinadi. Ikkinchidan, xalq maqollari hayot voqealigini butun ikir-chikirlari bilan oddiygina qayd etib qolmasdan, balki ularni chuqur tipiklashtirgan holda ifodalaydi. Demak, maqolda hammavaqt u yoki bu davr uchun tipik bo'lgan voqeliklar haqidagi xulosalar ifodalanadi, xolos.

Uchinchidan, maqollar xalqning ko'p asrlik mehnat jarayonida to'plangan tajribalarini umumlashtirib, ularni ixcham shaklda xulosalab beradi.

To'rtinchidan, maqollar xalqning ko'p asrlik tajribalarini faqat ifodalabgina qolmay, balki ularni izohlab, sharhlab ham beradi. Maqollar uchun mazmunan kenglik xosdir. Bu xususiyat esa maqolda o'z-o'zidan katta semantik ko'chimlar imkonini beradiki, natijada birgina maqolning o'zini turli vaziyatda turlicha mazmunda qo'llash mumkin. Mana shu xususiyat maqolga, ko'p hollarda, xususiyati barhayotlik bag'ishlaydi. Maqollar qanday zamon yoki makonda yaratilmasin kishilarni doim ezgulik, yaxshilikka undab, o'zining hayotiy xulosalari bilan kishilarga suyanich, tayanch bo'lib qolaveradi.

Mazkur fasldagi qo'yilgan masalani o'rganish natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

I. Maqollar dastlab o'tkir kuzatuvchanlik va o'z fikrini bir nechagina so'z bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'lgan bir kishi tomonidan to'qib chiqarilgan, o'rinli ifodalangan bu fikr keyinchalik ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi oqibatida yuzaga kelgan. So'ng asta-sekin og'izdan og'izga o'tib, har xil shaklga, ko'rinishga otgan.

II. Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan bo‘ladi.
2. Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma‘noni o‘zida aks ettiradi.
3. Xalq maqollari shaklan she‘riy va nasriy usulda yuzaga kelgan bo‘ladi.
4. Maqollarda hayotiy voqea va hodisa haqida qat’iy hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.
5. Maqollar shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazaridan umumlashtiriladi.
6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.
7. Paydo bo‘lishi va yo‘qolishi juda sekin kechadi.
8. Maqollar makon va zamon tanlamaydigan, hamma vaziyatda bir xil qo‘llanadigan umumiylik, ma‘lum bir vaziyatda qo‘llanadigan, qo‘llanish doirasi cheklangan vaziyatlilik yoki cheklanganlik belgisiga ega bo‘ladi.
9. Maqolda aylanuvchi fikr xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasida sinalgan bo‘ladi va unda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etadi.
10. Maqol ko‘pincha ko‘chma ma‘noga (metaforik) ega bo‘ladi.
11. Maqol o‘z tabiatiga ko‘ra xalqaro janr hisoblanadi. Uni anglatgan terminlar mazmunida “so‘z”, “nasihat”, “hikmat”, “aqlli so‘z” ma‘nosi anglashiladi.
12. Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribalarini faqat ifodalabgina qolmay, balki ularni izohlab, sharhlab ham beradi

1.2. O‘zbek va nemis maqollarining o‘rganilish tarixidan

O‘zbek xalq maqollarini ham, nemis xalq maqollarini ham to‘plash va o‘rganish ancha oldingi davrga borib taqaladi. Chunki maqollar o‘zining ifoda etuvchi chuqur ma’nosi, ixcham va sodda shakli bilan kishilarni o‘ziga maftun etib, qiziqtirib kelgan. Unga nisbatan turli nomlar qo‘llangan bo‘lsa-da, ularda “chuqur ma’noni ifoda etgan hikmatli gap” ma’nosi yotadi.

O‘zbek tilida qo‘llanuvchi maqol atamasi umumturkiy “saw” atamasiga to‘g‘ri keladi va u “otalar so‘zi” ni o‘zida ifoda etadi. Ushbu termin dastlab Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarida uchraydi. Shu jihatdan olib qaraganda, maqol terminning ilk bor qo‘llanishi Fitrat nomi bilan bog‘lanadi. Abdurauf Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” kitobining “El adabiyoti ” bo‘limida xalq og‘zaki ijodi janrlari bilan o‘quvchini tanishtirar ekan, maqol janriga ham to‘xtalib o‘tadi: “Elning kun ko‘rgan, ish o‘tkazgan sinalishli qarilari tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa ma’noli gaplardir”¹

deya maqollarga ta’rif beradi. Aynan shu asardan so‘ng maqol paremik birliklarga eng munosib atama sifatida o‘zbek paremiologiyasida qo‘llana boshladi.

Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal ma’nosini beradi.

O‘zbek va nemis maqollarini o‘rganish yuzasidan shu paytga qadar bir qator ishlar amalga oshirilgan . O‘zbek maqollarining mavzu, tasnif, poetikasi, jihatdan mukammal tadqiq etilgan ilmiy asar shu paytga qadar o‘zbek folklorshunosligida amalga oshirilgani yo‘q. O‘zbek maqollari haqidagi tadqiqotlarni Fitrat, Rajab Jumaniyozov, Mansur Afzalov, Bahodir Sarimsoqov, Shuhrat Shorahmedov, Muhammadjon Hakimovlar amalga oshirilgan. Ammo bu ilmiy asarlar, asosan,

¹ Фитрат А. Танланган асарлар II жилд (Илмий асарлар) – Т.: Маънавият, 1994.

kichik hajmdan iborat bo‘lib, fundamental kuzatuv yetishmasligi ularda aniq seziladi. Maqollar haqida yozilgan ayrim dissertatsiyalar (B. Jo‘rayeva, X. Abdurahmonov) da soha jihatdan folklorshunoslikka emas, tilshunoslikka oiddir.

Manbalarda keltirilishicha, turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida keltiriladi. Muallif ularni turkiy tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlarni izohlash uchun misol sifatida keltiriladi. Masalan, ushbu asarda keltirilgan “Kishi olasi ichtin”(Odam olasi ichida bo‘ladi), “Alp yag‘ida, alchaq jo‘g‘ida” (Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh esa majlisda sinaladi), “Alp cherikda, bilga tirikda” (Botir jangda, dono esa majlisda sinaladi) singari maqollar hozirgi vaqtda ham ishlatiladi.

Shundan so‘ng Yusuf Xos Hojibdan tortib Alisher Navoiygacha, Mashrabdan Hamzagacha mumtoz adabiyot tarkibida foydalanilgan maqol namunalarini filologiya fanlari doktori Bahodir Sarimsoqov ta’kidlagan **“oddiy folklorizm”** namunasi sifatida kuzatish mumkin. Og‘zaki ijodimizdagi bu janrni haqiqiy ma’noda ilmiy jihatdan tadqiq etish XX asrning 20-yillaridan boshlanganini ayta olamiz. Bahodir Sarimsoqov taklif qilgan maxsus turga oid bu janr namunalari Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Mansur Afzalov, Rajab Jumaniyozov kabi olimlar tomonidan, asosan, xalq donoligining so‘z san’ati orqali ifodalangan shakl ko‘rinishi sifatida baholangan yuqorida nomlari keltirilgan olimlar asosiy e’tiborni maqollarning badiiyatiga emas, fikriy va mazmuniy ko‘lamiga qarab izohlashgan. XX asrning 80- yillaridan maqollarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor o‘zgardi. Bahodir Sarimsoqov bu janrdagi so‘z san’ati xususiyatlarining aks etishiga, O. Madayev maqollarning janr xususiyatlariga e’tibor qaratdi. Xalq maqollarining so‘z san’ati sifatidagi xususiyatlari tilshunoslik jihatdan ularda so‘zlarning qo‘llanishi, takrorlanishi nuqtai nazaridan o‘rganilganligini ham ahamiyatga molikdir.

O‘zbek maqollarini, nafaqat, o‘zbek olimlari, shuningdek , Turkistonga sayohat qilgan bir qator chet ellik olimlar ham o‘rganishgan. Xususan, XIX asr oxirlariga borib o‘zbek maqollarini to‘plash va chop etish ishlari qayta avj ola boshladi. Bu

ishga dastlab xorijlik olimlarning faoliyati qaratilganligi ko‘zga tashlanadi. 1865-yil Vengriya davlat fanlar akademiyasining filologiya bo‘limi chop etgan “Tilshunoslik axbaroti”ning 271-315 sahifalarida o‘zbek folkloridan materiallar, jumladan, 44 maqol, shuningdek, bir qancha ertak va topishmoqlar ham nashr etilgan edi. Bu chet ellarda o‘zbek folkloriga qiziqishning orta borayotganidan darak berardi.

1867-yil Leybsigda venger olimi Herman Vamberining nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiyasi-lug‘atiga folklor va adabiyotning ayrim namunalari qatori 112 ta o‘zbek maqoli ham kiritilgan bo‘lib, ularning nemisga tarjimalari ham ilova qilingan edi.¹

1895-yilda N.P.Ostroumov 1000 ta o‘zbek maqollarini to‘plab, “Пословицы и загадки сартов” nomi ostida chop ettirdi. U maqollarni 21 mavzuga ajartgan holda o‘z to‘plamiga kiritgan. 1902-1908- yillarda yurtimizga safar qilgan A. Samoylovich ham folklor ishlarini o‘rganish asnosida bir qancha doston, ertaklar bilan birga maqollarni ham yozib olib, 1909-1910- yillarda Peterburgdagi “Rus arxeologiya jamiyatining sharq bo‘limi” nashrida chop ettirgan.

O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan esa 1924- yildan maqollar to‘plab, nashr etila boshlandi. 1924- yilda Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li tomonidan “O‘zbekcha otalar so‘zi”, 1926-yilda Sherali Ro‘zi tomonidan “O‘zbek maqollari”, 1939-yilda Buyuk Karimov tomonidan “Maqollar va hikmatli so‘zlar”, 1941-yilda Sh. Rizayev, O‘. Azimov, O‘. Xolmatovlar tomonidan, 1947-yilda Hodi Zaripov tomonidan “Otlar so‘zi – aqlning ko‘zi” ; 1958, 1960, 1965, 1978- yillarda Mansur Afzalov, Sobirjon Ibrohimov, Sarvar Xudoyberganov tomonidan “O‘zbek xalq maqollari”; 1964-, 1967-, 1970-yillarda Rajab Jumaniyozov tomonidan ; 1976-, 1986-yillarda E. Siddiqov; 1978-yilda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulov, Ibrohim Haqqulov, R.Zaripovlar tomonidan; 1981-1984-yillarda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulovlar tomonidan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamlari nashr etildi.

¹ Ўзбек халқ мақоллари. Жилд (А – О) – Т.: Фан, 1987. – Б.5

Biroq bu nashrlarning ayrimlarida maqollarni berishda jiddiy nuqsonlar ham koʻzga tashlanaganini ham qayd etib oʻtish lozim. Bu holat folklorshunoslarimiz eʼtiboridan chetda qolmadi. Bu borada filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulning “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasida eʼlon qilingan “Maqol egasiz emas” maqolasini eslatish maqsadga muvofiqdir. Maqolada mazkur toʻplamning kamchlik va nuqsonlari haqida soʻz boradi. Jumladan, muallif shunday yozadi: “Oʻzbek xalq maqollari. 65 mavzuda maqollar guldastasi” kitobida xalq ogʻzaki ijodi va folklorshunoslarimiz mehnatiga bepisand qaralganiga guvoh boʻlamiz. Har bir sahifadagi xatolar, kitob mavzulariga maqollar nooʻrin kiritilgani, mazmuniga qaramay qoʻshib yuborilgani ham shundan dalolat beradi”. Bu fikrlarni oʻqib mazkur toʻplamni tayyorlashda anchayin eʼtiborsiz yondashilgani maʼlum boʻladi. Maqolada mazkur toʻplamdan keltirilgan maqollarning buzilgan shaklini oʻqib bunga yana bir bor amin boʻlasiz: “ “Igna yoʻqotgandan sigir yoʻqotgan gumonsirar”(140-bet) maqolini oʻqib, beixtiyor igna yoʻqotgan odamdan nega sigir yoʻqotgan odam gumon sirashi kerak, deb oʻylanib qolasiz. Bunda mantiqsizlik shundoq koʻrinib turibdi. Aslida esa bu maqol quyidagicha: “Igna oʻgʻirlagandan sigir yoʻqotgan odam gumonsirar” ”¹. Bu maqolada keltirib oʻtilgan kamchliklar muallif tomonidan keyingi nashrlarda tuzatilsa va maqol toʻplamlarini nashrga tayyorlovchilar ushbu jihatlarga eʼtibor qaratsa maqsadga muvofiq boʻlardi.

Xuddi oʻzbek maqollari singari nemis maqollarining oʻrganilish ishlari ham ancha oldin boshlangan. Xususan, nemis maqollarini olim F.Zayler chuqur oʻrgangan. U oʻzining keng hajmdagi asari boʻlmish “Nemischa maqollar taʼlimoti” asarini frazeologiya muammolariga bagʻishlaydi. U maqol soʻzining kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Maqol oʻrta nemis tilida ham “Sprichwort” boʻlgan va u “men gapiraman” maʼnosini anglatgan. Har bir maqol haqiqiy xalq

¹ Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas// Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. – 2014 yil 4 aprel, № 14, B.4

soʻzi boʻlishi kerak. Koʻpgina maqollar yagona makonda, xalq qatlamlarida xalqchil boʻlib, keyinchalik tez-tez shevalarda koʻrina boshlaganlar¹¹ʻʻ.

Maqollarni til sturukturasi jihatidan oʻrganish, maqol toʻplamlari tuzish Germaniyada XVII asrda boshlandi. Xususan, XVII asrda asosan Germaniyada nemischa-italyancha lugʻatlar tuzildi. 1648-yilda Augsburgda Johann Guntzel tomonidan “Hauptschüssel der Teutschen und Italiänischen Sprache” lugati chop etildi. Lugʻatda soʻz va soʻz birikmalari, frazeologik birliklar berilgan. 1700-1702-yillarda Nyurenbergda Matias Kramer tomonidan tuzilgan ikki qismdan iborat “Herlich Grosses Teutsch-Italiänisches Dicitonarium oder Wort-und Red-Arten-Schatz der unvergleichlichen Hoch-teutschen Grund und Haupt-Sprache” asarida ham frazeologiya sohasida izlanishlar haqida soʻz yuritiladi.

Maqollarni oʻrganish va ularni nashr qilishda oʻzbek folklorshunosligining hozirgi rivojlanish darajasida xalq maqollarini quyidagi jihatlardan tasnif etish mumkin.

1. **Alfavit tartibi.** Ushbu prinsipga koʻra, mavjud material maqol toʻplamida alfavit tartibiga solinadi. Bunday tasnifning afzalligi shundaki, u maqollardan foydalanuvchilarga toʻplamdagi maqolni tezroq topishga yordam beradi. Mazkur tasnifning kamchiligi shundaki, unda materialning tematik mansubiyati, tuzulishi, poetik tabiati va boshqa xossalari haqida maʼlumot berilmaydi. Alfavit tartibida tasnif etilgan maqol toʻplamlari soʻngida kerakli koʻrsatgichlar bilan taʼminlangandagina mukammallik kasb etadi.
2. **Tematik tasnif.** Tasnifning bu turi avvalgisidan bir necha daraja murakkab va murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki bunda mavjud material muayyan tematik guruhlariga ajratiladi, har bir tematikadagi material esa oʻz ichida alfavit tartibida beriladi.

¹¹ Qarang: Nemischa-oʻzbekcha maqol va matallar lugʻati. Tuzuvchilar: Sh.Imyaminova. Sh.Kamolova. – T.:MUMTOZ SOʻZ, 2013. – B.4-5

Tematik tasniflar asosida tuzilgan maqol to'plamlari foydalanish jihatdan qulayligi, eng muhimi, muayyan xalq maqollari fondining tematik doirasini ko'rsatib turishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi.

3. **Poetik tasnif.** Ma'lumki maqollarning semantik tabiati davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi: ilgari o'z ma'nosida qo'llanilgan maqollar keyinchalik faqat ko'chma ma'no kasb etishi mumkin. Maqollar mazmunidagi ana shunday semantik ko'chimlarni ko'zdan kechirish o'zbek xalq maqollarini : a) o'z ma'nosida qo'llanuvchi ("Avval bil, keyin qil", "Avvalini berguncha, oxirini bersun", "Baliq suv bilan tirik, odam el bilan tirik") maqollar; b) o'z va ko'chma ma'noda qo'llanuvchi ("Vaqillagan vaqtini o'tqazar, qo'lidagi naqtini ketqazar") e) faqat ko'chma ma'noda qo'llanuvchi ("Avvaylab uchmagan qush qanotidan ayrilar", "Baliq boshidan sasiydi") maqollar guruhlariga bo'lish mumkin. Ushbu tasnif maqollarning davrlar o'tishi bilan toraygan yoki kengaygan ma'nolarini o'zida ifoda etadi.

4. **Tarixiy tasnif.** Maqol – juda qadimiy, ayni paytda hamisha zamonaviy janr. Uning qadimiyligi xalq tarixi qadar uzoq. Binobarin, xalq maqollarida muayyan davrga tegishli holatlar, tuzum asoratlari ifoda etilgan bo'lishi mumkin. Masalan, quldorlik davri, feodal davri va h.

5. **Maqollarni tuzilishiga ko'ra tasnif etish.** Bu xildagi tasnifda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir necha guruhlariga ajratiladi. Masalan, ikki komponentli maqollar : Ayron osh bo'lmas, nodon bosh bo'lmas; to'rt koppanentli

Arg'umoqda yol yo'q deb,

Yo'lga tashlab ketmanglar.

Er yigitda mol yo'q deb,

Yovga tashlab ketmanglar.

Tasnifning bu turi maqollar tuzulishini, uning tarkibidagi komponentlarning o'zaro munosabatlarni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bulardan eng ko‘p qo‘llanadigan tasnif **alfavit** tartibli tasnifdir. Biz bitiruv malakaviy ishda obyekt qilib olgan to‘plamlarning aksariyatida maqollar alfavit usulida berilgan. Xususan, [“http://www.allesprichwoerter.de”](http://www.allesprichwoerter.de) saytida nemis maqollari alfavit asosida tartiblangan. Unda “a” harfi bilan boshlanuvchi 657 ta, “b” harfi bilan boshlanuvchi 458 ta, „c“ harfi bilan boshlanuvchi 14 ta, “d” harfi bilan boshlanuvchi 1836 ta, “e” harfi bilan boshlanuvchi 1635 ta, “f” harfi bilan boshlanuvchi 281 ta, “g” harfi bilan boshlanuvchi 720 ta, “h” harfi bilan boshlanuvchi 355 ta, “i” harfi bilan boshlanuvchi 243 ta, “j” harfi bilan boshlanuvchi 273 ta, “k” harfi bilan boshlanuvchi 388 ta, “l” harfi bilan boshlanuvchi 288 ta, “m” harfi bilan boshlanuvchi 736 ta, “n” harfi bilan boshlanuvchi 288 ta, “o” harfi bilan boshlanuvchi 49 ta, “p” harfi bilan boshlanuvchi 95 ta, “q” harfi bilan boshlanuvchi 7 ta, “r” harfi bilan boshlanuvchi 177 ta, “s” harfi bilan boshlanuvchi 669 ta, “t” harfi bilan boshlanuvchi 188 ta, “u” harfi bilan boshlanuvchi 174 ta, “v” harfi bilan boshlanuvchi 340 ta, “w” harfi bilan boshlanuvchi 2650 ta, “y” harfi bilan boshlanuvchi 49 ta, “z” harfi bilan boshlanuvchi 239 ta jami 12835 ta maqol keltirilgan. Ushbu alfavit tartibi nemis maqollarining o‘zbekcha tarjima va muqobil variantlari to‘plamlarida ham saqlangan. “Немисча-ўзбекча-русча мақол ва маталлар луғати”(Xolmatov Sh.S., Norbekova Z.T., Nurmatov D.T.), Sprichwörter Пословицы Мақоллар (Marqayev K., Mahmudov N., Xamrayev D.), (Nazarov P.), “Sprichwörter 101 Proverbs Пословицы Мақоллар” (Mahmudov N. Sharipova N.) kabi to‘plamlari shular jumlasidandir. Ularning dastlabkisi Po‘lat Nazarov tomonidan tuzilgan “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar” to‘plami Samarqandda 2001-yilda chop etilgan . Unda avval nemischa paremiologik birlik va uning o‘zbekcha muqobili, so‘ng esa ushbu maqolga teng keladigan boshqa muqobillar sanab o‘tilgan.

Arbeit bringt Brot, Faulenzen Not.

(So ‘zma-so ‘z: Mehnat non olib keladi, dankasalik – muhtojlik –izoh bizniki)

Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

Muqobillari

Erinchoq ikki ishlar, oxir barmogʻin tishlar.

Dangasaning kosasi oqarmas.

Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni bitar.

Bugungi ishni ertaga qoʻyma.

Yalqovlikning oxiri xoʻrlik.

Ish vaqtida – ayyor, osh vaqtida – tayyor.

Agar nemischa maqolga nemis tilidagi muqobil boʻlsa ular ham **“Analogie”** izohi ostida berilib oʻtilgan.

Arbeit bringt Brot, Faulenzen Not.

Analogie

Das Nichtstun macht den Menschen dumm.

Das Heute soll dem Morgen nichts borgen.

Faul kriegt wenig ins Maul.

Faulheit lohnt mit Armut.

Faulen Arbeiter ist jeder Hammer zu schwer.

Nach Faulheit folgt Krangheit.

Wer faul ist, will, das die Woche sieben Feiertage.

Muqobil sifatida keltirilgan maqollar qoʻllangan soʻz va badiiyati jihatidan farq qilsada, tematikasi, bildirilgan maʼno bir xil hisoblanadi. Mazmun bir-biridan xilma-xil. Shu jihatdan bir-birini takrorlamaydi.

Nisbatan keyinroq tuzilgan “Sprichwörter 101 Proverbs Пословицы Мақоллар” (Mahmudov N. Sharipova N., 2008) kichik to‘plamida maqollar nemis-ingliz-rus-o‘zbek maqollari ketma-ketligida joylashtirilgan. Dastlab nemis tilidagi maqol keltirilib va unga muqobil ingliz, rus va o‘zbek tilidagi maqollar berilgan:

Aller Anfang ist schwer.

All things are difficult before they are easy.

Луха беда начало.

Har ishning boshi qiyin.

Ba’zi hollarda nemis tilidagi maqolning qavsda so‘zma-so‘z tarjimasi berilib, muqobili “qiyos” izohida keltirilgan:

Ein Affe bleibt ein Affe, wird’er König oder Pfaffe.

(Mazmun mazmunligicha qoladi, xoh shoh bo‘lsin, xoh pop.)

All are not saint that go tot he church.

Осла хоть в Парижб все будит рыж.

Qiyos: Eshak Makkaga borgani bilan halol bo‘lmas.

Ularni tartiblashda umumiy yondashilgan. Nazarimda, ularni yuqoridagi ikki ko‘rinishini alohida alohida tartiblash maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Ushbu mualliflar tomonidan tuzilgan keyingi to‘plam “Sprichwörter Пословицы Мақоллар” deb atalib, unda avvalgi to‘plamda kiritilgan maqollarning inglizcha muqobili olib tashlanib, to‘ldirilgan va boyitilgan.

“Немисча-ўзбекча-русча мақол ва маталлар луғати”(Xolmatov Sh.S., Norbekova Z.T., Nurmatov D.T.) to‘plamida 1000 ga yaqin nemischa, o‘zbekcha, ruscha maqollar jamlangan. To‘plamda avval nemischa maqol keltirilib, so‘ng unga muqobil o‘zbek maqollari va rus maqoli berilgan:

Alte Bäume lassen sich nicht biegen.

Rahmat olgan omondir, la'nat olgan yomondir.

Oq it, qora it – bari bir it.

Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.

Yomon bilan yursang qolarsan uyatga.

Горбатого могила исправитю,

Старое дерево скрипит да не ломается.

To'plamda maqollar alfavit tarzida joylashtirilgan. Filologiya fanlari nomzodi, professor Sh. Karimov mazkur kitobga yozgan "So'z ko'rkining uch tilli muqoyasasi" nomli so'zboshisida maqollarning o'zaro mavzu va so'zlarning qo'llanishi jihatidan bir xillik holatlarini izohlar ekan ularni ikkiga bo'ladi:

1. Nemis va o'zbek maqollari orasida, shu bilan birga boshqa xalqlar maqollarida ham mavjud bo'lgan maqollar. Bunday maqollarning milliy o'ziga xosligi quyidagilarda namayon bo'ladi:

- a) bevosita bir xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini, maishiy va tarixiy voqelikni aks ettirishida;
- b) bir xalqqa xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sadoqatlilik, do'stlik, mehmondo'stlik va ibolilikning aks etishida;
- c) muayyan xalq yashaydigan hududdagi o'simlik va hayvonot dunyosini aks ettirish;
- d) bir xalqqa xos etnografik xususiyatlarning mavjudligida;
- e) tilida.

2. Yaratilishi jihatdan maqollar:

- a) xalqlarning ko'p asrlik ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tajribalari kuzatuvlari;
- b) u yoki bu shoir, yozuvchi ijodidagi ibratli fikrlarning xalq orasida keng tarqalishi va ommalashuvi asosida yuzaga keladilar. Har ikki xil maqollar ham

to'liq ommaviy qo'llanishiga ega bo'lgach, ularning yaratuvchisini aniqlab bo'lmay qoladi. Yaratuvchisining anonimik xarakteri va og'zaki nutqda ommaviy qo'llanishi maqollarning xalq og'zaki ijodi doirasida to'planishi va o'zganilishiga imkon beradi.¹

Bu o'rinda muallif maqollarning paydo bo'lishi va tarqalishini asosli ravishda izohlab beradi. Ammo nazarimda, maqollarning yaratilishida biror-bir yozuvchi yoki shoir asaridagi ibratli fikrdan hosil bo'lishi kishida mulohaza uyg'otadi. Chunki xalqning zukko vakillari shoir yoki yozuvchi qo'llagan iborani farqiga borishadi va uning anonim bo'lib ketishi qiyinroq. Aks holda buyuk ajdodlarimiz yoki faylasuflarning fikrlari muallifi ma'lum holatda yetib kelmagan bo'lardi.

Ushbu bobni yozish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

- I. Maqollar dastlab o'tkir kuzatuvchanlik va o'z fikrini bir nechagina so'z bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega bo'lgan bir kishi tomonidan to'qib chiqarilgan, o'rinli ifodalanagan bu fikr keyinchalik ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi, qo'llanishi oqibatida yuzaga kelgan.
- II. maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi:
 1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan bo'ladi.
 2. Maqollar mazmunan serko'lam va chuqur ma'noni o'zida aks ettiradi.
 3. Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy usulda yuzaga kelgan bo'ladi.
 4. Maqollarda hayotiy voqea va hodisa haqida qat'iy hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.
 5. Maqollar shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazaridan umumlashtiriladi.
 6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.
 7. Paydo bo'lishi va yo'qolishi juda sekin kechadi.

¹ Холматов Ш.С., Норбекова З.Т., Нурматов Д.Т. Немисча-ўзбекча-русча мақол ва маталлар луғати – Т.: ЎзДЖТУ, 2013 Б – 4

8. Maqollar makon va zamon tanlamaydigan, hamma vaziyatda bir xil qo‘llanadigan umumiylik, ma’lum bir vaziyatda qo‘llanadigan, qo‘llanish doirasi cheklangan vaziyatlilik yoki cheklanganlik belgisiga ega bo‘ladi.
9. Maqolda aylanuvchi fikr xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasida sinalgan bo‘ladi va unda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etadi.
10. Maqol ko‘pincha ko‘chma ma’noga (metaforik) ega bo‘ladi.
11. Maqol o‘z tabiatiga ko‘ra xalqaro janr hisoblanadi. Uni anglatgan terminlar mazmunida “so‘z”, “nasihat”, “hikmat”, “aqli so‘z” ma’nosi anglashiladi.
12. Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribalarini faqat ifodalabgina qolmay, balki ularni izohlab, sharhlab ham beradi

III. O‘zbek maqollarining o‘rganilishi tarixi quyidagicha:

1. Dastlab, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit- turk” asarida turkiy maqollari keltirilgan. Ular turkiy tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlarni izohlash uchun misol sifatida keltiradi va ularni bugungi kunda faqat maqollarning matnlarini qayd etish deb baholash mumkin.
2. Undan keyingi davrda maqollar adiblar ijodida, mumtoz adabiyot namunalarida filologiya fanlari nomzodi ta’kidlagandek “oddiy folklorizm” shaklida uchraydi.
3. Og‘zaki ijodimizdagi bu janrni haqiqiy ma’noda ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning 20 yillaridan boshlandi va chet ellik olimlar(Herman Vamberi “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiyasi-lug‘ati, N.P.Ostroumov b, “Пословицы и загадки сартов” o‘zbek maqollarini to‘plami, A. Samoylovich Peterburgdagi “Rus arxeologiya jamiyatining sharq bo‘limi” dagi nashri) tomonidan o‘rganildi.
4. O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan 1924- yildan maqollar to‘plab, nashr etila boshlandi. 1924- yilda Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li tomonidan “O‘zbekcha otalar so‘zi”, 1926-yilda Sherali Ro‘zi tomonidan “O‘zbek maqollari”, 1939-yilda Buyuk Karimov tomonidan “Maqollar va hikmatli so‘zlar”, 1941-yilda Sh. Rizayev, O‘. Azimov, O‘. Xolmatovlar tomonidan, 1947-yilda Hodi Zaripov tomonidan “Otlar so‘zi – aqlning ko‘zi” ; 1958, 1960, 1965, 1978- yillarda Mansur Afzalov, Sobirjon Ibrohimov, Sarvar Xudoyberganov tomonidan “O‘zbek xalq maqollari”; 1964-,

1967-, 1970-yillarda Rajab Jumaniyozov tomonidan ; 1976-, 1986-yillarda E. Siddiqov; 1978-yilda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulov, Ibrohim Haqqulov, R.Zaripovlar tomonidan; 1981-1984-yillarda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulovlar tomonidan “O‘zbek xalq maqollari” kabi bir qator to‘plamlar nashr etildi.

5. Mazkur davrda B.Sarimsoqov bu janrdagi so‘z san’ati xususiyatlarining aks etishiga, O.Madayev maqollarning janr xususiyatlariga diqqat qaratdi.

6. Nemis maqollari ham dastlab german mifologiyasi ta’sirida paydo bo‘ldi.

7. Nemis maqol to‘plamlari tuzish Germaniyada XVII asr (XVII asrda asosan Germaniyada nemischa-italyancha lug‘atlar tuzilgan) da boshlandi.

8. 1648-yilda Augsburgda Johann Guntzel tomonidan “Hauptschüssel der Teutschen und Italiänischen Sprache” lug‘ati chop etildi. 1700-1702-yillarda Nyurenbergda Matias Kramer tomonidan ikki qismdan iborat “Herlich Grosses Teutsch-Italiänisches Dicitonarium oder Wort-und Red-Arten-Schatz der unvergleichlichen Hoch-teutschen Grund und Haupt-Sprache” tuzildi.

9. Nemis maqollari olim F.Zayler tomonidan katta hajmda “Nemischa maqollar ta’limoti” asarida chuqur o‘ragildi.

10. O‘zbek va nemis maqollarini Sh. Imyaminova, Sh. Kamolova, Sh. Xolmatov, Z. Norbekova, D. Nurmatov, M. Yakubova, N. Mahmudova, N. Sharipova, P. Nazarov, K. Marqayeva, D. Hamrayeva, Sh. Kuvanova kabilar o‘rgandi. Ular asosiy e’tiborni ularning tarjima muammolariga qaratishdi va tarjimalar qilishdi.

11. Maqol to‘plamlarini nashr qilishda alfavit, tematik, poetik, tarixiy, tuzulishiga ko‘ra tasniflardan foydalanib nashr qilindi. Ularning eng ko‘pi o‘zbeklarda mavzu jihatdan tasniflar, nemislarda alfavit usulida tasniflar hisoblanadi.

II BOB. O‘ZBEK VA NEMIS MAQOLLARI MAVZU VA BADIYYATI XUSUSIDA

2.1. O‘zbek va nemis maqollarining tematik qiyosi

Maqollar kishilarni doim yaxshilikka va ezgulikka, rostgo‘ylikka, ilm olishga, kattaga hurmat va kichikka izzatda bo‘lishga, kamtarlikka, halol mehnat bilan kun kechirishga, bir-biriga sadoqatli va mehr-oqibatli bo‘lishga undab kelgan. Shu tufayli ham maqollar ifodalayotgan ma’no, chiqarilayotgan hukmga ko‘ra turli mavzularni qamrab oladi.

Endi esa biz o‘zbek va nemis xalq maqollarida e’tiborga olingan tematik jihatlarni o‘zaro qiyoslab chiqsak. Avvalo, o‘zbek va nemis maqollarining tematik jihatdan solishtiradigan bo‘lsak, ular da umuminsoniy qadriyatlar, fazilatlar va odatlar, falsafiy tushunchalar har ikki xalq maqollarining asosiy mavzusini belgilaydi. Masalan:

- a) *“Mein Nest ist das beste”*(So‘zma-so‘z: Mening uyim eng yaxshisi),
“Mein Haus ist mein Burg ” (So‘zma-so‘z: Mening uyim-mening qal’am)¹
nemis maqoli va unga muqobil **o‘zbek maqoli** *“O‘z uying-o‘lan to‘shaging”*da maqolida vatan mavzusi;
- b) *“Wo Friede, da Glück”*(Qayerda tinchlik bo‘lsa, o‘sha yerda baxt bor)
nemis maqoli va unga muqobil **o‘zbek maqoli** *“Tinchlik baxt keltirar”*da tinchlik mavzusi,
- c) *“Zeit ist Gold”*(Vaqt bu pul), *“Heute ist besser als zehn Morgen”*(Bugun o‘nta ertadan yaxshiroq), *“Früh auf, gut Lauf”*(Erta turganning yo‘li ochiq) kabi **nemis maqollar** va unga muqobil *“Vaqtin ketdi – naqdning ketdi”*, *“Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko‘p turtinar”* maqollarida vaqtni, umrni qadriga yetish;

¹ Bundan keyin qavslarda nemis maqollarining so‘zma-so‘z tarjimasi beriladi.

- d) *“Arbeit macht das Leben süß”*(Mehnat turmushni shirin qiladi), *“Erst die Arbeit dann das Spiel”*(Avval ish, keyin o‘yin) **nemis** maqollarida, **o‘zbekcha** *“Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”* esa mehnatni ulug‘lash;
- e) *“Einigkeit ist die stärkste Stadtmauer”*(Birdamlik eng mustahkam devor), *“Eintracht bringt Macht”*(Hamjihatlik kuchga to‘ldiradi) **nemis maqollari** va unga muqobil o‘zbekcha *“Kuch birlikda”, “Hamjihatlik quvvat, birdamlik davlat”* maqollarida birlik, totuvlik mavzusi;
- f) *“Gesunder Mann, Reicher Mann”*(Sog‘ odam, boy odam), *“Gesundheit ist der größte Reichtum”*(Sog‘lik katta boylik) **nemis maqollari** ularga muqobil **o‘zbek maqoli** *“Sog‘lik tuman boylik”* maqollarida sog‘lik va uning ahamiyati;
- g) *“Wer ein Kalb siehlt, stieht eine Kuh”*(Buzoqni og‘irlagan, sigirni ham o‘g‘irlaydi) *“Wer mit Hinkenden umgeht, lernt hinken”* (Oqsoq bilan yursang, oqsashni o‘rganasan) **nemis maqollari** va ularga **muqobil** *“Organgan ko‘ngil o‘tansa qo‘ymas”, “Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi”* **o‘zbek maqollarida** yomonlik hamda yomonning boshqalarga ta’siri;
- h) *“Ein Affe bleibt als ein Affe”*(Maymun maymunligicha qoladi), *“Der Fuchs ändert den Balg und bleibt ein Schalk”*(Tulki terisini o‘zgartirsa ham ayyorligicha qoladi), *“Als Esel geboren als Esel gestorben”*(Eshak bo‘lib tug‘ilgan, eshak bo‘lib o‘ladi) **nemis maqollari**, *“Qazisan, qartasan, asl naslingga tortasan”, “Eshakni Makkaga olib borsang ham halol bo‘lmas”* kabi **o‘zbek maqollarida** insoniylik ulug‘lanib, insoniy xususiyatga ega bo‘lmagan insonning to umrining oxirigacha shu holatda qolishi kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Ko‘rinib turganidek, maqollarning mavzu ko‘lami juda keng. Ular qamrab olmagan jabha yo‘q. Bu jihatdan har ikki xalq maqollari bir-biridan qolishmaydi. Bu holatni biz maqollar muqobilida yana kuzatamiz.

Dunyodagi barcha xalqlar o‘g‘zaki ijodida maqollarchalik shakli va ifoda etayotgan, bildirayotgan mazmunichalik bir-biriga juda yaqin, hatto aynan bir xil bo‘lgan janr yo‘q. Bu holatni biz faqat maqollarda ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida o‘zbek va nemis maqollaridagi o‘xshashliklarni ko‘rib chiqsak.

Nemischa “*Der Ton macht Musik*”(Tovushlar musiqa yaratadi) maqolida tovushlar birgalikda birikgandagina bir ish(musiqa) chiqara olishi ma’nosi hayotiy o‘xshatma orqali berilayotgan bo‘lib, **o‘zbekcha** “*Kuch birlikda*” yoki “*Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar*” maqoliga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, yana bir **nemischa** “*Begossene Hunde furchten das Wasser*” (Cho‘kkan kuchuk suvdan qo‘rqar) maqoli **o‘zbekcha** “*Og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichar*” maqoliga, **nemischa** “*Der Appetit kommt beim Essen*” (Ishtaha ovqat paytida keladi) maqoli **o‘zbekcha** “*Har ishning o‘z vaqti bor*”, **nemischa** “*Löwen fangen keine Mäuse*” (Sherlar sichqon ovlamaydi) maqoli o‘zbekcha “*Teng tengi bilan tezak qopi bilan*” maqoliga, “*Den Esel erkent man an den Ohren und an den Worten der Toren*” (Eshakni qulog‘idan taniydilar, ahmoqni – so‘zidan) maqoli **o‘zbekcha** “*Sen menga do‘stingning kimligini ayt, men senga sening kimligingni aytaman*” maqoli anglatgan ma’noni ifodalab, unga muqobil (ekvivalent) bo‘la oladi. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Yana shuningdek, o‘zining janr xususiyatlariga ko‘ra xalqaro janr sanalgan maqollarning o‘zbek maqollariga muqobil bo‘lgan variantlari boshqa xalqlar ijodida ham uchraydi. Masalan, o‘zbek va boshqa xalqlar maqollaridagi o‘zaro mushtaraklik va farqli jihatlarni tahlil qilish orqali fikrimizni isbot qilsak. **Rus maqollaridan biri:** “*Insonni kiyimiga qarab kutib oladilar, bilimiga qarab hurmat qiladilar*” yoki **mo‘g‘ullardagi** “*Insonni tashi bilan kutib olinadi, ichi bilan kuzatiladi*” maqoli **o‘zbek xalq maqollaridagi:** “*Kiyimiga qarab kutib oladilar,*

muomalasi(so'ziga)ga qarab kuzatib qo'yadila"r maqoliga, **ruminlardagi** "Kimdir sizni bir marta aldasa ayb unda. Ikkinchi marta aldansangiz, ayb sizdadir" yoki **nemislardagi** "Birinchi marta hech narsa emas" maqollari **o'zbeklardagi** "Mo'min chayon inida bir marta chaqiladi" yoki "Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi" maqollariga, **yapon xalq og'zaki ijodidagi** "Birinchi rafiqani senga xudo, ikkinchisini insonlar, uchinchisini shayton jo'natadi", **gollandlardagi** "Bir marta uylanish vazifa, ikkinchi marta uylanish ko'ngil ochish, uchinchisi azobdir" maqoli **o'zbeklardagi** "Birinchi baxt baxt, ikkinchisi qora baxt" maqoliga, **nemislardagi** "Ko'zlar o'zlariga, quloqlar boshqalarga ishonadilar" maqoli **o'zbeklardagi** "Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon" maqoliga, **amerika xalqlaridagi** "Birlashish boshlanishdir, birlikka erishish taraqqiyotdir, birlikda ishlash muvaffaqiyatdir" yoki **nemislardagi** "Tovushlar birgalashib musiqa yaratadi" maqoli **o'zbekcha** "Kuch birlikda" yoki "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqoliga, **Daniya maqollaridagi** "Va'dalar mamlakatida inson ochlikdan o'ladi" paremiologik birligi **o'zbeklardagi** "Quruq qoshiq og'izni yirtadi" maqoliga, **yunonlardagi** "Och qolmagan inson nonning qadrini bilmas" **o'zbeklardagi** "Borni qadriga yo'qda etiladi" maqoliga muqobil bo'la oladi. Bunday maqollarni ko'plab sanash mumkin. Ulardagi o'xshashliklarning boisi esa xalqlar orasidagi o'zaro yaqinlik va umuminsoniy jihatlarga asoslanishidadir. Ammo ular badiiyati, qo'llanayotgan ramz, majoz, o'xshatishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Misol uchun o'zaro muqobillari keltirilgan rus, mo'g'ul, o'zbek maqollarida shaxslarning o'zaro munosabatlarida e'tiborga olinadigan jihatlar birida "**kiyim va bilim**" (rus maqolida), birida "**ich va tash**"(ya'ni sur'at va siyrat) (mo'g'ul maqolida) va boshqasida esa "**kiyim va muomala** (so'z)" (o'zbek maqolida) kabi vositalar qiyosida ko'rsatilib o'tilmoqda. Ko'rinib turganidek, bir-biriga o'xshash, sinonim maqollar faqat o'zbek va nemis maqollarida emas, balki boshqa xalqlar maqollarida ham uchraydi. Buning sababini M. Yakubova shunday izohlaydi: "Insoniyat hayotining bir-biriga o'xshash tomonlari juda ko'p. Ushbu o'xshashliklar hayotiy masalalarga yondashishda, ularga baho berishda bir-biriga

yaqin fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi. O‘sha yaqin fikrlar zaminida tug‘ilgan hukm-xulosalar milliy ruh qobig‘iga o‘ralgan holda namoyon bo‘ladi. Natijada g‘oyaviy jihatdan o‘zaro yaqin, ifodaviylik tomonidan rang-baranglikka ega bo‘lgan sinonimik maqollar ro‘yobga chiqadi’’¹

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh. Imyaminova va tadqiqotchi Sh. Kamolova o‘zlarining “Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati” kitobiga so‘zboshi sifatida keltirgan “Maqol xalq ijodiga yo‘g‘irilgan kichik asardir” maqolalarida ba’zi barcha xalqlar ijodida uchraydigan bir xil shakl va mazmundagi maqollarning tarixi, ilk bor uchragan asar va ,uallifini keltirib o‘tadilar. Masalan:

“Vaqt – bu pul”. Bu gapni birinchi marta amerikalik olim va siyosat arbobi Benyamin Franklin (1706-1790) o‘zining “Yosh savdogarga maslahat” asarida aytgan. Franklinning bu gapi ishbiarmonlar, bankir va savdogarlarning shioriga aylanib qolgan.

“Omad kuchlilarga kulib boqadi”. Bu maqolning muallifi ingliz yozuvchisi va dramaturgi Oskar Uayld (1854-1900)dir.

“Sukut alomati – rizolik belgisi”. Bu gap ilk bor eramizga qadar 496-406-tillarda yashagan buyuk yunon shoiri Sofoklning tragediyasida ishlatilgan.

“Oxiri kulgan afzalroq”. Ushbu jumla fransuz yozuvchisi Jan-Pier Florian (1755-1794) ning “Ikki dehqon va bulut” masalidan olingan. Bu gap “Oxiri boxayr bo‘lsin”, “Jo‘jani kuzda sanaymiz” kabi qanotli so‘zlariga sinonim sifatida qo‘llanib kelinmoqda.²

Bu fikrlar, albatta, jiddiy tadqiqotlarga asoslangan. Haqiqatdan, adabiy asarlarda tilga olingan hikmatli so‘zlar, qayerda yaratilmasin o‘zaro aloqalar

¹ Якубова М. Ўзбек мақолларининг ғарб халқлари фольклоридаги маънодош муқобиллари// Илм сарчашмалари, 2013 йил 8 сон. - Б.78

² Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh. Imyaminova. Sh. Kamolova. – T.:MUMTOZ SO‘Z, 2013.

tufayli yoyilib, ommalashishi mumkin va bora-bora har bir xalqning maqol xazinasidan joy oladi.

Shuningdek, nemis maqollari ichida o‘zbek maqollariga ekvivalent maqollar bilan bir qatorda yana shunday maqollarni uchratamizki, ular o‘zbek xalq maqollari orasida uchramaydi. Ularga misol qilib, *“Durch Schaden wird man klug”* (Kulfat kishini hushyor qiladi), *“Redden ist Silber, Schweigen ist Gold”* (So‘zlash kumush, jim turmoq(sukut saqlamoq) oltindir), *“Halbes Wissen ist kein Wissen”* (Chala bilim bilim emas), *“Salz und Brot machen die Wangen rot”* (Tuz va non yuzni qizil qiladi), *“Was dem Herzen gefällt, das suchen die Augen”* (Yurak nimani xohlasa, ko‘z shuni qidiradi), *“Wo viel Licht ist, ist starker Schatten”* (Nur ko‘p bo‘lsa, soya ham ko‘p bo‘ladi), *“Das Gerücht tötet den Mann”* (G‘iybat odamni o‘ldiradi), *“Die erste Gedanke ist nicht immer das Beste”* (Ilk taassurot aldamchi) kabilarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Bu holatni boshqa xalq og‘zaki ijodida uchrovchi maqollarda ham kuzatish mumkin. “Boshqalarga ta’na qilgandek o‘zingga ta’na qil, o‘zingni kechirganing kabi boshqalarni kechir”(xitoy maqoli), “Qadah ichiga dengizga g‘arq bo‘lganlardan ko‘p kishi g‘arq bo‘ladi” (nemis xalq maqoli), “Oltin olov bilan, ayol oltin bilan, erkak ayol bilan imtihon qilinadi” (Amerika maqoli), “Yigit urushda, do‘st dardda, komil inson g‘azabi kelganda ma’lum bo‘ladi” (arab maqoli), “Qarz berarkansan, yo pulni, yo do‘stni yo‘qotasan” (Alban maqoli), “Ishq bilan aksirish hech qachon yashirilmaydi”(Avstraliya maqoli), “Haqiqiy sevgi ayriliqda unutilmas” (Belgiya maqoli), “Sevish kamon chalish kabidir, bilmagan yomon kuylar chiqaradi” (Boliviya maqoli), “Ko‘kdagi yulduzlarni emas, erdagi suruvlarni ko‘proq sana” (bolgar maqoli) maqollarini keltirish mumkin. Ular tashiyotgan ma’no esa kishini o‘z-o‘zidan hayratga soladi va o‘z-o‘ziga bo‘lgan talabni yana bir oshirishga undaydi.

Endi esa o‘zbek va nemis xalq maqollaridagi aks etgan tarbiya masalasiga biroz to‘xtalsak. Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z nutqlarining birida “Ulug‘ maqsadlarga

yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go‘zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a‘zolari bo‘lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodga bog‘liqdir”-deb ta’kidlaganlar. Komillik esa uning jismoniy va ma’naviy yetukligi bilan belgilanadi. Ma’naviy yetuklikning asosi esa shaxsning tarbiyasiga bog‘liqdir. Shu sababdan ham yurtimizda olib borilayotgan ta’limning negizida tarbiya yotadi. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya jarayoniga to‘xtalar ekan shunday deb yozadi: “Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog‘i lozimdur”¹. Ushbu fikrlarning o‘zi tarbiya jarayoning mohiyatini ochib beruvchi dalil vazifasini o‘taydi.

Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos shakl va ma’no munosabatiga ega bo‘lgan xalq maqollarida ham tarbiya masalasi eng asosiy mavzulardan biri sanaladi. Ularda tarbiyaning muhim jaroyon ekanligi va unda nimalarga e’tibor berish kerakligi maqolda berilayotgan fikr va hukmga asos bo‘ladi.

Ma’lumki, tarbiyaning asosi yoshlikda qo‘yiladi. Inson bolalikda sodda, ishonuvchan, samimiy, bo‘ladi. Aynan shu davrdan bolaga e’tiborli bo‘lish, odobi va tarbiyasini nazorat qilish, o‘rgatish talab etiladi:

Nemischa:

“Das Bäumchen muss man biegen, solange es jung ist” (Tarjimasi: Niholni egish mumkin, yosh bo‘lgan paytda) maqoli

O‘zbekcha:

“Egri butoqni niholida tobini ol”², “Nihol yoshdan, bola boshdan” maqoliga muqobil bo‘ladi.

¹ Абдулла Авлоний, Туркий гулистон ёхуд ахлоқ, Т:О‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004,

² Ўзбек халқ мақоллари, Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусакулов, Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва саъат нашриёти, 1989

Izoh: Har ikkala maqoldagi “nihol” misolida yosh bola nazarda tutilib, uni tarbiyasini navniholligidan, bolaligidan nazorat qil, to‘g‘rilik tomonga eg, aks holda egri o‘sishi, tarbiyasini, odobini buzishi mumkinligi uqtiriladi.

Nemischa:

“Am Neste kann mann sehen, was für ein Vögel darin wohnt” (Iniga qarab qaysi qush u yerda yashashini bilish mumkin) maqolida insonning(qush) qanday tarbiya topgani, did-farosati, yurish-turishi, toza-ozodaligi yoki buning aksi ekanligi uning yashash joy(in)ida, manzilida aks etishi mumkinligi ta’kidlanib, hukmga asos bo‘ladi. Umuman olganda faqatgina uy emas unga tegishli bo‘lgan narsalarning holatiga qarab, kishining qandayligini bilish mumkin deyilmoqda.

Ushbu maqolga muqobil sifatida esa **o‘zbeklardagi** *“Paxtasini ko‘rib bo‘zini ol, onasini ko‘rib qizini ol”*, *“Yaxshi otadan-yaxshi o‘g‘il, pesdan-dagadak⁴”* maqollarini keltirish mumkin. Chunki ota-onaning qandayligini ko‘rib, ular tarbiya qilgan farzandlarga baho beriladi. Bunga sabab, farzand, odatda, ota-onasidan o‘rnak oladi, ularga o‘xshashga harakat qiladi. Ota-onaning qandayligi farzandda aks etadi. Buning misolini esa yana bir hayotiy tajriba asosida paydo bo‘lgan **nemis folkloridagi:**

“Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm” ya’ni *“Olma tanasidan uzoqqa tushmaydi”* maqolini keltirish mumkin.

Ushbu maqolni **o‘zbeklardagi** *“Olmani tagiga olma tushadi”* muqobilini keltirish mumkin.

Izoh: Ushbu maqollarda **“olma”** so‘zi ko‘chma ma’noda bo‘lib, real hayotiy voqea orqali kishilarning xulq-atvori ularning atrofidagi kishilar, yaqinlaridan boshqacha bo‘lolmasligi (ya’ni olmaning olma daraxtidan uzoqlasha olmasligi) e’tiborga olinmoqda.

Yana shuningdek **nemislardagi:**

“Das Alter soll man ehren” (Keksalarni e’zazlash zarur) maqoliga **o‘zbeklardagi** *“Kattaga hurmatda bo‘l kichikka izzatda”* maqolini, **nemislardagi** *“Jung gelehrt,*

⁴ pesdan-dagadak-pes aslida xalq orasida teri kasalligi bu yerda odamlar yoqtirmaydigan, o‘zini undan olib qochadigan, axloqsiz insondan “dagadak” ya’ni bezori farzand tug‘iladi ma’nosida

alt geehrt”(Yoshlikda o‘rgatilgani, keksalikda qadrlanadi) maqoliga **o‘zbeklardagi** “Yoshlikda olingan bilim- toshga o‘yilgan naqsh”, “Kichikni maqta, kattani saqla” maqolini, **nemislardagi** “*Wer das Kleine nicht ehrt, ist das Großen nicht wert*”(Kim kichikni izzat qilmasa, kattani ham e‘zozlamaydi) maqoliga **o‘zbeklardagi** “*Kattaga hurmatda bo‘l kichikka izzatda*” maqolini muqobil sifatida keltirish mumkin.

Tarbiyaga oid bunday maqollarni har ikkala xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida ko‘plab uchratish mumkin. Boisi, tarbiya har qanday zamonda va makonda xoh u o‘zbek, xoh u nemis bo‘lsin, eng muhim masala sanaladi.

Kishi tarbiyasining yo‘qligi unga berilgan yomon tarbiya, avvalo, uning keyingi hayotiga, yaqinlarining hayotiga, qolaversa, keyinchalik u faoliyat yuritadigan jamoa, jamiyat hayotiga salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Ushbu fikr **nemischa:**

“Eine angelaufte Birne verdirbt den ganzen Korb” ya’ni *“Bir aynigan nok butun savatni aynitadi”* maqoli,

o‘zbeklardagi:

“Bir “shaltoq” buzoq butun podani buzadi” muqobilida o‘z aksini topgan.

Izoh: Bizningcha, bu yerda olingan hayotiy misol *“buzilgan nokning savatdagi boshqa noklarni ham aynitishi”*, “*“shaltoq” buzoqning podadagi qolgan sigirlarni ham buzishi*” (nemislardagi nok, o‘zbeklardagi buzoq)kuzatilgan voqelik qanday makonda (shahar yoki qishloq, yoki muhit chorvachilik yoki dehqonchilik) paydo bo‘lganiga ko‘ra farqlanadi.

Yana bir nemis maqoli:

“Der Fisch fängt am Kopfe an zu sinken” ya’ni *“Baliq boshidan qarmoqqa ilinadi”* maqolida oila yoki jamoadagi boshchi, ega boshqalarga o‘rnak bo‘lmasa, o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarmasa, natijada oila yoki jamoadagi boshqa kishilar ham undan “o‘rnak” oladi va oxiri yaxshilik bilan tugamaydi(qalmoqqa ilinadi, qo‘lga tushadi, xalok bo‘ladi) degan ma’no ta’kidlanmoqda. Bu maqolda ham kishining tarbiyasida unga boshchi bo‘lgan insonning, tarbiyachining, o‘rni juda katta ahamiyatga ega ekanligiga urg‘u berilmoqda.

Ushbu maqolga esa **o‘zbek maqollaridagi:**

“Baliq boshidan sasiydi”, “Kishi tilidan ilinadi” maqollarini keltirish mumkin.

O‘zbek va nemis maqollari tematikasini qiyolash davomida ular qamrab olgan eng ko‘p mavzularga e‘tibor qaratdik.

Har ikki xalq maqollari orasida eng keng mavzu – bu mehnatsevarlik mavzusidir. Mehnatsevarlik haqidagi maqollar xalqning qanchalik mehnatsevarligini, hunarmandligini, sof, halol, mehnatga bo‘lgan munosabatini o‘ziga aks ettiradi va xalqning ijobiy xislati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bunday maqollarning muqobil variantlarini topish kishiga qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Yana shuningdek, vatan, tarbiya, sabr-qanoat, yaxshilik va yomonlik, birlik, haqiqat va to‘g‘rilik, yoshlik va keksalik, donolik va ahmoqlik, ilm olish kabi bir qator mavzulardagi maqollar har ikkala xalq maqollarida ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Nemis xalq maqollarida vaqtning qadriga yetish, undan unumli foydalanishga oid maqollar ko‘pchilikni tashkil qiladi:

Nemis maqollari	Ma’nolari
Zeit ist Gold	Vaqt bu pul
Heute ist besser als zehn Morgen	Bugun o‘nta ertadan yaxshiroq
Früh auf, gut Lauf	Erta turganning yo‘li ochiq
Keine Ding währt ewig	Hech narsa abadiy emas
Man muß sich nach der Zeit richten, sie richtet sich nicht nach uns	Vaqt senga emas, sen vaqtga qara
Man weiß das am besten zu schätzen, was man nicht mehr haben kann	Borni yo‘qotmasingdan oldin qadriga yet
Morgen, morgen, nur nicht heute, sagen alle faulen Leute	Erta, erta, faqat bugun emas, Deydi hamma dangasalar
Nichts ist ewig	Hech narsa abadiy emas
Was du kannst am Abend tun, läßt nicht bis Morgen ruhn	Bugungi ishni ertaga qo‘yma

Bu holatni **nemislarda** ibora “*Deutsche Pünklichkeit*” ya’ni “*Nemischa aniqlik*” bilan izohlash mumkin. Yana shuningdek, tartib-intizom, tarbiya, ilm o‘rganish mavzularidagi maqollar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

O‘zbek xalq maqollarida o‘zbek xalqining dono siymosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag‘rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodiyotligi, mehmondo‘stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to‘g‘riligi, sevgi-sadoqati, jo‘shqinligi, tiyrakligi, g‘ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g‘azabi, betakror urf-odatlar va an’analar yaqqol aks etib turadi.

O‘zbek maqollari orasida farzand va farzandsizlik, bolani e’zozlash mazmunidagi maqollar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, Komil Imomov, Nizom Komilov, To‘ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov kabi bir qator folklorshunoslar tomonidan tuzilgan “*O‘zbek xalq maqollari*” to‘plamida “**Farzand va farzandsizlik**” mavzusida 142 ta maqol joy olgan. Bundan farqli o‘laroq nemis maqollarida bunday maqollar juda kam uchraydi.

Maqollarda ajdodlarimiz axloqiy qarashlari narsa-hodisalarga munosabatlari, ruhi va tafakkuri sezilib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodga o‘z turmush tajribalarida, xulosalaridan saboq beradi.

2.2.O‘zbek va nemis maqollari badiiyati qiyosi

Maqollarda o‘ziga xos janr xususiyatlari, shakl va ma’no tovlanishlari, mavzular doirasining kengligi mavjud. Ularni o‘qigan yoki eshitgan paytda o‘ziga chorlaydigan shunday sehr borki, bu ularning o‘ziga xos badiiyatidir. Ulardagi tovushdoshlik (*alliteratsiya, assonans*), ma’no ko‘chishi (*metafora, metanomiya, kinoya, majoz*), badiiy tasvir vositalari (*o‘xshatish, sifatlash,*) kabilarning qo‘llanishi maqollarning ta’sir doirasini yanada oshiradi, o‘ziga maftun etadi. Qadimdan kishilar ma’naviyatini boyitib kelgan maqol, matal, naqlar o‘zining betakror badiiyati, o‘ynoqi ohangi bilan o‘zidan keyin hujudga kelgan she’rlarga, qo‘shiqlarga asos bo‘ldi deyish mumkin. Chunki maqollar xoh nasriy, xoh she’riy shalkda bo‘lmasin, ularda o‘ziga xos ritm mavjud. Maqol she’rga “*bosh unsur-ritmni*” bergan, vazn va qofiya ham bevosita maqoldan o‘zlashtirilgan, fikrni lo‘nda, ixcham, mazmunli va ta’sirbaxsh tarzda aks ettirish jihatdan maqol va she’r o‘rtasida umumiy yaqinlik mavjudligini ham sezish qiyin emas. Yana shuningdek, maqollarda xotiraga oson o‘rnashadigan ramz va majozlar ham tez-tez uchraydiki, bu xususiyat she’r tabiyati uchun asosiy fazilatga ko‘tarilgan.

Maqollar xalq ijodiyotining mustaqil janri sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning tili sodda, ifodali va ko‘rkam. Ular ko‘plik leksik va sintaktik, poetik usullari bilan an’anaviy folklorga xos turli majozlar, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a kabi badiiy vositalari bilan diqqatga sazovordir. Bu poetik vositalar maqollarning tinglovchiga bo‘lgan ta’sirini orttiradi.

Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammaligi taniqli olimlar va shoirlar, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so‘z san’atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma’noligi, mavzu jihatdan hayotiyliги maqollarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta’minlagan omildir. San’at asarlari qimmatini belgilovchi eng talabchan sinov vaqt hisoblanadi. Ayniqsa, vaqt sinovi talabiga og‘zaki asarning javob berishi o‘ta muhimdir. Har qanday tashviqotlarga qaramay sho‘ro

tuzumida kolxoz afzalligi maqtalgan maqollarning umri qisqa bo‘ladi. Sho‘ro tuzumi haqidagi maqtov dostonlar ham yaratilgani zahoti kishilar xotirasidan chiqib ketdi. Haqiqiy maqollarning shakllanishi uzoq davrni qamraydi, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan maqolning umri boqiy bo‘ladi. “Qonni qon bilan yuvib bo‘lmaydi” maqolini Mahmud Koshg‘ariy “Qonig qan bilan jumas” tarzida keltirilgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha-necha asrlar yashaganini faqat taxmin qilish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, maqollarning badiiy mukammalligi ularning hayotiyligini, umrboqiyligini izohlar ekan. Ayni choqda badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor.

Maqollarning badiiy shakli ularning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham maqollarning mustaqil janr sifatida estetikaning shakl va mazmun birligi qonunini namoyish etishda juda ham qulaydir.

Bayonda badiiy tasviriy vositalarda qisqalikka intilish maqollarga katta estetik qudrat bag‘ishlaydi. Mana shu jihatdan qaraganda, maqollarning tuzilishi ham o‘ziga xosdir. Ayrim maqollar yoyiq sodda gaplar shaklida bo‘lsalar, ayrimlari qo‘shma gap shaklida, ammo chuqur mazmun ifodalovchi ixcham hajmda bo‘ladilar. Shakliy tuzilish jihatidan esa yo she‘riy, yo nasriy tuzilishga ega bo‘ladilar. O‘zbek va nemis maqollarida esa har ikkala ko‘rinishdagi ya‘ni ham she‘riy, ham nasriy ko‘rinishdagi maqollarni uchratishimiz mumkin.

Maqollar matnida badiiy go‘zallikning bevosita so‘z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatidan quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Tazot (zid qo‘yish, qarshilantirish).

Mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at, nasr yo nazmda bir-biriga qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni ishlatish. Bu maqollarning qutbiylik belgisiga asoslanib, maqol tematikasiga ko‘ra ikki qarama-qarshi shaxs, narsa-predmet, voqea-hodisa, xatti-harakat kabilar o‘zaro zidlanib, qiyoslanib maqolda ifodalangan

xulosa beriladi. Bunda bir-biriga zidlangan voqea-hodisalar tinglovchiga ma'lum bo'lgani uchun maqoldan xulosa chiqarish oson kechadi. Ushbu san'at maqollar matnida eng ko'p qo'llanadigan badiiy tasvir vositasi hisoblanadi. Ushbu san'at o'zbek va nemis maqollarining har ikkalasida ham ko'p kuzatiladi:

Besser ein Spatz in der Hand, als eine Taube auf dem Dach.

(Tomdagi kabutardan, qo'lingdagi qarg'a yaxshi)

Muqobili: *Uzoqdagi quyruqdan, yaqindagi o'pka yaxshi.*

Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi yot yaxshi.

Böses schreit man in Stein, Gutes in Sand.

(Yomonlik toshga, yaxshilik qumga yoziladi)

Muqobil: *Yaxshilik ko'zga ko'rinmas, yomonlik ko'mib qo'yilmas.*

Birinchi nemis maqolida „kabutar“ va „qarg'a“, unga muqobil sifatida keltirilgan o'zbek maqolidagi „quyruq“ va „o'pka“, „qarindosh“ va „yot“ so'zlari o'zaro zidlanib, qiyoslanib xulosaga asos bo'lmoqda. Ushbu so'zlar zartli zid ma'noli so'z bo'lib, majoziy ma'noda qo'llangan. Nemis maqolida „kabutar har qancha chiroyli(yaxshi) bo'lmasin u sening qo'lingda emasmi, unga ega emasmisan unda foydasiz. Qarg'a kabutardan yomon bo'lsada u qo'lingdami, unga egamisan undan foyda bor. Kabutar haqida o'ylaganni foydasi yo'q“ degan xulosa chiqadi. Bu yerda kabutar va qarg'a majoz bo'lib, bir turdagi ammo bir-biridan uzoqroq, biri ikkinchisidan yaxshiroq bo'lgan narsa-hodisalar nazarda tutulmoqda. Yana shuningdek, kabutar „ushalmas xayol“ qarg'a esa har qancha yomon bo'lmasin „reallik“ hozir undan foyda, shundan foydalan degan xulosa chiqarish mumkin. Ushbu mazmunni muqobil sifatida keltirilgan „Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi yot yaxshi“ maqoli orqali yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. (Uzoqdagi senga qarindosh bo'lsada, u uzoqda undan foyda yo'q, u sening kuningga yaramaydi. Yaqindagi yot, qo'shni yaraydi. Uni qadriga yet. U qarindosh-u bu begona deb ajratma deyilmoqda).

Keyingi keltirilgan maqollarda ham ushbu holarni ko‘rish mumkin. Birovga qilingan yaxshilik tez unutilishi, yomonlikning esa yashab qolishi. Shuning uchun birovga yomonlik qilish kerak emasligi xulosaga asos bo‘ladi.

2. Alleteratsiya (tovushdoshlik, ohangdoshlik). She’riy nutqda (nasrda nisbatab kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosta, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi. Ushbu badiiy unsur maqolda o‘ziga xos vosita sanaladi:

1. Frische Fische – gute Fische
2. Kleine Kinder, kleine Sorgen, grosse Kinder, grosse Sorgen.
3. Der Schuster trägt immer die schlechten Stiefen.
4. Andere Jahre – andere Haare.

Yoki o‘zbekcha:

1. Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar.
2. Aqlli naqlab so‘zlar, aqlsiz laqillab so‘zlar.
3. Ko‘p ko‘rgan, ko‘p bilar.
4. Toqqa qarab quloni, suviga qarab iloni.

Keltirilgan dastlabki, nemis maqolida “f”, “sch”; “i”, “e”, ikkinchisida “k”, „l“, „n“, “s”; “o”, “e” uchinchisida “sch”, “t”, to‘rtinchisida “n”, “r”, “e” undosh va unli tovushlari, o‘zbek maqollarining birinchisida “sh”, “t”, “l”; “i”, “a” ikkinchisida “l”, “q”; “a”, uchinchisida “k”, “p”; “o”, to‘rtinchisida “q”; “o”, “a” tovushlari o‘zaro uyg‘unlashib, undoshlar o‘zaro alleteratsiyani, unlilar esa assonansni tashkil qilgan. Maqolda tovushlarning bunday uyg‘unligi maqolning ta’sirchanligi orttirib va esda qolishini osonlashtiradi. Bunday uyg‘unlikni o‘zbek maqollarida ko‘proq kuzatish mumkin.

3. Metafora – ko‘chim (o‘xshatish). Ko‘chimning bir turi bo‘lib, narsa-hodisalar orasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Metafora mohiyatan yashirin o‘xshatish bo‘lib, unda o‘xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda, uning

ma'nosini o'xshayotgan narsa (ya'ni uni ifodalayotgan so'z) bildiradi. Ushbu badiiy vosita maqollarda eng ko'p qo'llanuvchi vosita sanaladi. Misol uchun:

Nemis maqollari:

“Löwen fangen keine Mäuse”

(Sherlar sichqon ovlamaydi)

Bu nemis maqolda keltirilgan „Löwe“(Sher) so'zi orqali hayot darajasi, obro'yi yuqori insonning obrazi yotgan bo'lsa, „Mäuse fangen“(sichqon ovlamoq) birikmasi orqali esa yuqori darajadagi, ushbu ishni qilishdan ancha yuqori insonning o'ziga yarshmaydigan, qilsa uyat bo'ladigan, ishonish ham mumkin bo'lmagan ishi, ma'nosida kelmoqda. Agar sen o'zingni sher-mard hisoblasang, sichqon ovlama, o'zingga, yoshingga, insoniyligingga yarashadigan ishni qil. Aks holda nomingga dog' tushurasan, kulguga qolasan.

“Eine angelaufte Birne verdirbt den ganzen Korb”

(Bir aynigan nok butun savatni aynitadi)

Ushbu ma'qolda “angelaufte Birne” ya'ni “aynigan nok” bu “tarbiyasi, axloqi buzilgan, saviyasi yaxshi bo'lmagan inson” inson obrazi sifatida, “Korb” ya'ni “savat” esa insonlar jamoasi, to'da, jamiyat ma'nosida kelmoqda. Ya'ni tarbiyasi yaxshi bo'lmagan, axloqi yomon inson o'zi kirgan jamoani ham buzishi, o'ziga o'xshatishi mumkinligi kuzatilgan hayotiy misol orqali berilmoqda.

Ushbu maqolga muqobil bo'lgan o'zbek maqoli “Bir “shaltoq” buzoq butun podani buzadi”da “shaltoq” sigir “tarbiyasi, axloqi buzilgan, saviyasi yaxshi bo'lmagan inson” obrazida, “poda” esa “insonlar jamoasi, to'da, jamiyat” ma'nosida kelmoqda.

O'zbek maqoli “Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas” maqolidagi “et” va “tirnoq” so'zlari qarindosh-urug'; ota-bola; aka-uka, tug'ishganlar ma'nolarini bildiradi.

4. Jonlantirish(tashxis)

“Der Ball sieht den guten Spieler”

(To'p yaxshi o'yinchini ko'radi)

Mazkur nemischa maqolda harakatchan, yaxshi insonning doim omadi kelishi, omadli, mohir odam (o'yinchi) omadni(to'pni) emas, aksincha, omad(to'p) o'z ishida mohir odamni(o'yinchini) topishi xulosaga asos bo'lmoqda. "To'p" elementi esa jonlantirish san'ati asosida jonlantirilmoqda.

Yana bir misol:

Unglück trifft nur die Armen.

(Baxtsizlik kambag'alni topadi)

Ushbu maqol yuqoridagi maqolning zid bo'lib, unda ikki xil ma'noni anglash mumkin. Birinchidan, kambag'al odamning har jabhada omadi yurishmasligi, nimaki salbiy holatlar bo'lsa u tomon borishi xulosaga asos bo'lmoqda. Bunda ijtimoiy muhitdagi holatni ochib bermoqda.

Ikkinchidan, odatda, kambag'allik odamning o'z aybi, harakatsizligi bilan yuzaga keladi. Agar sen ham "baxtsizlik ortingdan yurishini xohlamasang" harakatda bo'l va boyi degan tashviqot ham bor, nazarimda.

5. Majoz yoki allegoriya. Odatda, o'xshatishning asosi hisoblanadi. Lekin majoz deganda ko'p holatlarda hayvon obrazlari orqali inson holati yoki ichki dunyosini yoritish tushuniladi. Hayvonlar vosita qilib olingan kichik hikoya ya'ni masal asosida ham majoz yotadi. O'zbek va nemis maqollarida qo'llanadigan majozni kuzatar ekanmiz, ba'zi o'ziga xosliklarga duch keldik.

Nemis maqollarida majoz sifatida tulki, ayiq, bo'ri, maymun, g'oz, burgut vosita qilib olinsa, o'zbek maqollarida esa echki, eshak, ot, it, bulbul, qo'y, buzoq kabi hayvon va parrandalar nomlari uchraydi.

Masalan, nemis maqollari:

Die Gans geht so lange zur Kühe, bis sie stecken bleibt.

G'ozni tutub olmaguncha oshxonaga kelaveradi)

Uning muqobili o'zbek maqoli:

Eshkining o'lgisi kelsa, qassob bilan o'ynashadi.

Sichqonning o'lgisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi.

Ein Affe bleibt als ein Affe.

(Maymun maymunligicha qoladi)

Der Fuchs ändert den Balg und bleibt ein Schalk.

(Tulki terisini o‘zgartirsa ham ayyorligicha qoladi)

Bär bleibt Bär, fährt man ihn auch übers Meer.

(Ayiqligicha qoladi, dengizga jonatilsa ham.)

Der Bär schnappt stets nach Honig.

Adler fangen nicht Fliegen.

(Burgut pashsha ovlamaydi)

O‘zbek maqollari:

Bulbul chamanni sevar odam vatanni.

Ot aylanib qozig‘ini topadi.

Ot o‘rnini toy bosadi.

Yomon ot to‘rva teshar.

Yomon otga yol bitmas,

O‘larmonga – mol.

Yomon it egasini qopar.

It vafo, xotin jafo.

Bo‘ynidan bog‘langan it ovga yaramas.

Baliq suv bilan tirik, odam el bilan.

6. Sifatlash.

Kleine Ursachen, groß Wirkungen.

(Kichik sabab, katta oqibatga olib keladi)

Ein kluger Kopf hat einen geschlossenen Mund.

(Aqlli odam kam gapiradi)

Mazkur maqollarda “kichik sabab”, “katta oqibat”, “aqlli bosh” birikmalarida sifatlash ishtirok etgan.

“Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”

Maqolda insonlar o'rtasidagi munosabat faqat moddiy narsa bilan emas, shirin muomala bilan qadrlanishi qayd qilinmoqda. "Bug'doy non", "bug'doy so'z" birikmasida sifatlash san'ati qo'llangan"¹.

Maqollarning og'izdan og'izga ko'chishi va tez kishilar xotirasida saqlanib qolishining asosiy sababi bu ularning o'ziga xos qofiyalanish tizimiga egaligidir. Shuning uchun ham, maqollarga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan.² Maqollardagi badiiy unsurlardan biri bu qofiyadir. Maqol matnini kuzatar ekanmiz, ulardagi ohangdosh so'z – qofiya ishtirokining hammasida birdek ustunligini ko'ramiz.

Nemischa	Qofiyadosh so'zlar
Salz und Brot machen die Wangen rot	Brot, rot
Morgen, morgen, nur nicht heute, sagen alle fuulen Leute	Heute, Leute
Eintracht bringt Macht	Eintracht, Macht
Wer das Kleine nicht ehrt, ist des Grossen nicht wert	ehrt, wert

O'zbek maqollari	Qofiyadosh so'zlar
Qari kelsa oshga, yoshga kelsa ishga	oshga, ishga
Avval o'zingga boq, keyin nag'ora qoq	boq, qoq
Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik	boylik, chiroylik
Tinchlik-rohat, urush ofat	rohat, ofat

Mashhur folklorshunos olim S.G.Lazutinning „Maqollardagi qofiyalar ham tasodifan olingan emas, balki ular o'ylab topilgan, maxsus yaratilgan. Odatda eng

¹ Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.:MUMTOZ SO'Z, 2010. – B.72

² O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musaqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent, 2012.

ahamiyatli soʻzlar qofiyadoshlik holatini kasb etadi¹ degan fikri ham maqollarning tuzilishini oʻziyoq taʼlim-tarbiyaviy jihatdan kishini yetuklikka chorlashidan yana bir bor dalolat beradi.

Nemis maqollarida qoʻllanuvchi soʻzlarning, xulosa uchun asos qilib olgan oʻxshatishlarning, aksariyati, hayotiy, har kim kuzatishi mumkin boʻlgan voqealarga asoslanadi:

“Wer ein Kalb siehlt, stieht eine Kuh”

(Buzoqni ogʻirlagan, sigirni ham oʻgʻirlyadi)

“Der Ton macht Musik”

(Tovushlar birlashib musiqa yaratadi)

“Begossene Hunde furchten das Wasser”

(Choʻkkan kuchuk suvdan qoʻrqar)

“Gebranntes Kind scheut das Feuer”

(Kuygan bola olovdan qoʻrqar)

“Adler fangen nicht Fliegen”

(Burgut pashsha ovlamaydi)

„Wer „a“ sagen, muß auch „b“ sagen“

(A ni aytgan, b ni ham aytishi kerak)

Oʻzbek maqollarida esa fikr uchun asos qilib olingan voqea hayotiy misoldan koʻra ancha aniqroq. Misol uchun, yuqorida keltirilgan nemis maqollariga muqobil baʼzi oʻzbek maqollarini keltiramiz:

Begossene Hunde furchten das Wasser – Ogʻzi kuygan qatiqni ham puflab ichar.

¹ Nazarov P., Nemischa-oʻzbekcha maqol va matallar. – S.: 2001

Wer „a“ sagen, muß auch „b“ sagen – Boshlagan oxiriga yetkazishi kerak.

Der Ton macht Musik – Kuch birlikda

Maqollardagi ushbu oʻziga xosliklar, betakror badiiyat ularni kishilar yodida tez saqlanib qolishi, ogʻzaki va yozma nutqda koʻproq qoʻllanishiga imkon beradi.

Koʻrinib turganidek, nemis va oʻzbek maqollarining badiiyatida keskin farqlar uchramaydi. Ularni oʻrganish davomida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Oʻzbek va nemis maqollari orasida matn komponentlari soniga koʻra ham bir, ham ikki komponentli maqollarni uchratish mumkin.
2. Tuzilishiga koʻra har ikkala koʻrinishdagi yaʼni ham sheʼriy, ham nasriy koʻrinishdagi maqollarni mavjud.
3. Har ikkala xalq maqollarida tazot, metafora, jonlantirish, alliteratsiya, assonans, sifatlash kabi badiiy vositalar birday uchraydi.
4. Nemis maqollarida qoʻllanuvchi soʻzlarning, xulosa uchun asos qilib olgan oʻxshatishlarning, aksariyati, hayotiy, har kim kuzatishi mumkin boʻlgan voqealarga asoslanadi:

“Der Ton macht Musik” (Tovushlar birlashib musiqa yaratadi)

5. Maqol matnini kuzatar ekanmiz, ulardagi ohangdosh soʻz – qofiya ishtirokining hammasida birdek ustunligini koʻramiz.
6. Nemis maqollarida majoz sifatida tulki, ayiq, boʻri, maymun, gʻoz, burgut vosita qilib olinsa, oʻzbek maqollarida esa echki, eshak, ot, it, bulbul, qoʻy, buzoq kabi hayvon va parrandalar nomlari uchraydi.

Xulosa

Xalq ogʻzaki ijodining betakror shaklga va maʼnoga ega boʻlgan xalq maqollari uni yaratuvchi xalq singari qadim hamda betakrordir. Oʻzining serjilo maʼnosi va badiiyati bilan kishilarni doimo oʻziga rom etib kelgan. Oʻz fikrlarini isbotlashda, hayot voqeliklaridan xulosa chiqarishda esa tayanch vazifasini oʻtagan va oʻtab kelmoqda. Boisi ular xalqning zukko vakillari tomonidan tez-tez ishlatilib turiladi. “Oʻz qadrini bilgan, soʻz qadrini bilar ” deydi dono xalqimiz. Istiqlol sharofati bilan oʻz qadriyatlarimizni yuksak darajaga koʻtardik. Asarlarimizni toʻla holda oʻrganish, tahlil etish imkoniga ega boʻldik. Ammo ushbu imkoniyatdan toʻgʻri va maʼsuliyat bilan foydalanilsa, yuqorida taʼkidlangan, maqol toʻplamlarini nashr ettirishdagi kabi maʼsuliysizlik, loqaydlik, bepisandlik holatlari yuz bermaydi. Zero, xalq oʻgzaki ijodiga boʻlgan loqaydlik, eʼtiborsizlik kishining avvalo oʻziga, qolaversa, oʻz oʻtmishiga, uni yaratgan xalqqa boʻlgan eʼtiborsizlikdir.

Mazkur bitiruv ishimni yozish davomida maqollarning yaratilish tarixi, ularga boʻlgan munosabat, ularning oʻrganilishi, oʻziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishish bilan birga, juda koʻp nemis va oʻzbek maqollarini koʻzdan kechirdim, oʻzbek va nemis xalqlarining donishmandligi, zukkoligiga yana bir bor amin boʻldim.

Mazkur mavzudan chiqargan umumiy xulosalarimiz quyidagilar:

1. Dastlab oʻtkir kuzatuvchanlik va oʻz fikrini bir nechagina soʻz bilan ravshan ifodalay olish qobiliyatiga ega boʻlgan bir kishi tomonidan toʻqib chiqarilgan, oʻrinli ifodalangan bu fikr keyinchalik koʻpchilik tomonidan qabul qilingan va ommalashib, xalq mulkiga aylangan.
2. Maqollar oʻziga xos xususiyatlari bilan xalq ogʻzaki ijodining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Ular hajmi jihatidan qisqa va cheklangan, mazmunan serkoʻlam, shaklan sheʼriy yoki nasriy, matnda keltirilgan mazmun, tasvirlangan

voqelik ko‘p hollarda ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi, fikrda hukm shaklidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Maqollarning shaklan va mazmunan ushbu xususiyatlarga ega ekanligi qiziquvchilarning ulardan ko‘proq foydalana olishiga katta yordam beradi. Chunki bir necha so‘zlardan iborat bo‘lgan bir maqol orqali biz o‘z fikrimizni aniq, tushunarli, ta’sirchan qilib tinglovchiga yetkaza olamiz. Maqollar bizga o‘z fikrimizni isbotlovchi dalil vazifasini o‘taydi.

3. Maqollar kishilar hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazaridan umumlashtiradi va umuminsoniy xarakter kasb etadi. Bu umumiylik, hayotiy voqea va hodisa haqidagi hukm musbat yoki manfiy mazmunga ega bo‘ladi.

4. Maqollar xalqaro janr sanaladi. Ya’ni hamma xalqlarda uchraydi. Maqollarni anglatuvchi terminlar mazmunida esa “so‘z”, “nasihat”, “hikmat”, “aqlli so‘z” ma’nosi yotadi.

5. O‘zbek maqollari, yozma manbalarda dastlab sodda ko‘rinishda O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida uchraydi. So‘ng Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ati turk” asarida, undan keyingi asrlarda esa mumtoz adabiyot vakillarining asarlarida folklorshunos B.Sarimsoqov ta’kidlagan “oddiy folklorizm” sifatida uchraydi.

6. Og‘zaki ijodimizdagi bu janrni haqiqiy ma’noda ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning 20 yillaridan boshlandi va chet ellik olimlar(Herman Vamberi “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiyasi-lug‘ati, N.P.Ostroumov b, “Пословицы и загадки сартов” o‘zbek maqollarini to‘plami, A. Samoylovich Peterburgdagi “Rus arxeologiya jamiyatining sharq bo‘limi” dagi nashri) tomonidan o‘rganildi

7. O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan 1924- yildan maqollar to‘plab, nashr etila boshlandi. 1924- yilda Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li tomonidan “O‘zbekcha otalar so‘zi”, 1926-yilda Sherali Ro‘zi tomonidan “O‘zbek maqollari”, 1939-yilda Buyuk Karimov tomonidan “Maqollar va hikmatli so‘zlar”, 1941-yilda Sh. Rizayev, O‘. Azimov, O‘. Xolmatovlar tomonidan, 1947-yilda Hodi Zaripov tomonidan “Otlar

soʻzi – aqlning koʻzi” ; 1958, 1960, 1965, 1978- yillarda Mansur Afzalov, Sobirjon Ibrohimov, Sarvar Xudoyberganov tomonidan “Oʻzbek xalq maqollari”; 1964-, 1967-, 1970-yillarda Rajab Jumaniyozov tomonidan ; 1976-, 1986-yillarda E. Siddiqov; 1978-yilda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulov, Ibrohim Haqqulov, R.Zaripovlar tomonidan; 1981-1984-yillarda Bahodir Sarimsoqov, Abiyr Musoqulovlar tomonidan “Oʻzbek xalq maqollari” kabi bir qator toʻplamlar nashr etildi. Mazkur davrda B.Sarimsoqov bu janrdagi soʻz sanʼati xususiyatlarining aks etishiga, O.Madayev maqollarning janr xususiyatlariga diqqat qaratdi.

8. Oʻrta nemis tilida va hozirda ham “Sprichwort” yaʼni “men gapiraman” maʼnosini anglatgan nemis maqollari dastlab german mifologiyasi taʼsirida paydo boʻlgan. Yaʼni nemis maqollaridagi majoz mifologiyalar mazmuniga borib bogʻlanadi.

9. Nemis maqol toʻplamlari tuzish Germaniyada XVII asr (XVII asrda asosan Germaniyada nemischa-italyancha lugʻatlar tuzilgan) da boshlandi. 1648-yilda Augsburgda Johann Guntzel tomonidan “Hauptschüssel der Teutschen und Italiänischen Sprache” lugʻati chop etildi. 1700-1702-yillarda Nyurenbergda Matias Kramer tomonidan ikki qismdan iborat “Herlich Grosses Teutsch-Italiänisches Dicitonarium oder Wort-und Red-Arten-Schatz der unvergleichlichen Hoch-teutschen Grund und Haupt-Sprache” tuzildi. Soʻng, nemis maqollari olim F.Zayler tomonidan katta hajmdagi “Nemischa maqollar taʼlimoti” asarida chuqur oʻragildi.

10. Oʻzbek va nemis maqollarini Sh.Imyaminova, Sh.Kamolova, Sh.Xolmatov, Z. Norbekova, D.Nurmatov, M.Yakubova, N.Mahmudova, N.Sharipova, P.Nazarov, K.Marqayeva, D.Hamrayeva, Sh. Kuvanova kabilar oʻrgandi. Ular asosiy eʼtiborni ularning tarjima muammolariga qaratishdi va tarjimalar qilishdi.

11. Maqol toʻplamlarini nashr qilishda alfavit, tematik, poetik, tarixiy, tuzulishiga koʻra tasniflardan foydalanib nashr qilindi. Ularning eng koʻpi oʻzbeklarda mavzu jihatdan tasniflar, nemislarda alfavit usulida tasniflar hisoblanadi.

12. Mavzularidagi o'ziga xoslik va farqlar quyidagilarda ko'rinadi. Birinchidan, har ikki xalq maqollari orasida ena keng mavzu – bu mehnatsevarlik mavzusidir. Mehnatsevarlik haqidagi maqollar xalqning qanchalik mehnatsevarligini, hunarmandligini, sof , halol, mehnatga bo'lgan munosabatini o'ziga aks ettiradi va xalqning ijobiy xislati sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli bunday maqollarning muqobil variantlarini topish kishiga qiyinchilik tug'dirmaydi. Yana shuningdek, vatan, tarbiya, sabr-qanoat, yaxshilik va yomonlik, birlik, haqiqat va to'g'rilik, yoshlik va keksalik, donolik va ahmoqlik, ilm olish kabi bir qator mavzulardagi maqollar har ikkala xalq maqollarida ko'pchilikni tashkil qiladi.

13. Mavzu jihatdan nemis xalq maqollarida vaqtni qadriga yetish, undan unumli foydalanishga oid maqollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu holatni nemislarda ibora “Deutsche Punctlichkeit” ya'ni “Nemischa aniqlik” bilan izohlash mumkin. Yana shuningdek, tartib-intizom, tarbiya, ilm o'rganish mavzularidagi maqollar ko'pchilikni tashkil qiladi.

14. O'zbek maqollari orasida farzand va farzandsizlik, bolani e'zozlash mazmunidagi maqollar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, Komil Imomov, Nizom Komilov, To'ra Mirzayev, Bahodir Sarimsoqov kabi bir qator folklorshunoslar tomonidan tuzilgan “O'zbek xalq maqollari” to'plamida “Farzand va farzandsizlik” mavzusida 142 ta maqol joy olgan. Nemis maqollarida bundan farqli o'laroq bunday maqollar juda kam uchraydi.

15. O'zbek xalq maqollarida o'zbek xalqining dono siymosi, tarixiy taqdiri, mentaliteti, bag'rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodyotligi, mehmondo'stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to'g'riligi, sevgi-sadoqati, jo'shqinligi, tiyrakligi, g'ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g'azabi, betakror urf-odatlari va an'analari yaqqol aks etib turadi.

16. Insoniyat hayotining bir-biriga o‘xshash tomonlari juda ko‘p. Ushbu o‘xshashliklar hayotiy masalalarga yondashishda, ularga baho berishda bir-biriga yaqin fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi. O‘sha yaqin fikrlar zaminida tug‘ilgan hukm-xulosalar milliy ruh qobig‘iga o‘ralgan holda namoyon bo‘ladi. Natijada g‘oyaviy jihatdan o‘zaro yaqin, ifodaviylik tomonidan rang-baranglikka ega bo‘lgan sinonimik, bir-biriga muqobil hatto aynan bir xil maqollar ro‘yobga chiqadi.

17. Ikkinchi, mazkur bir xildagi maqollarning paydo bo‘lishiga birinchi sabab o‘zaro aloqalar bo‘lsa, ikkinchi sabab ularning aksariyati mashhur shaxslar asarlaridan olingan, so‘ng ular yoyilgan.

Misolllar:

“Omad kuchlilarga kulib boqadi”. Bu maqolning muallifi ingliz yozuvchisi va dramaturgi Oskar Uayld (1854-1900)dir.

“Sukut alomati – rizolik belgisi”. Bu gap ilk bor eramizga qadar 496-406-tillarda yashagan buyuk yunon shoiri Sofoklning tragediyasida ishlatilgan).

18. Badiiyatidagi o‘ziga xoslik va farqlar: Tuzilishiga ko‘ra har ikkala ko‘rinishdagi ya’ni ham she’riy, ham nasriy ko‘rinishdagi maqollarni mavjud. Har ikkala xalq maqollarida tazot, metafora, jonlantirish, alliteratsiya, assonans, sifatlash, ohangdosh so‘z – qofiya kabi badiiy vositalar birday uchraydi.

19. Nemis maqollarida majoz sifatida tulki, ayiq, bo‘ri, maymun, g‘oz, burgut vosita qilib olinsa, o‘zbek maqollarida esa echki, eshak, ot, it, bulbul, qo‘y, buzoq kabi hayvon va parrandalar nomlari uchraydi.

20. Nemis maqollarida qo‘llanuvchi so‘zlarning, xulosa uchun asos qilib olgan o‘xshatishlarning, aksariyati, hayotiy, har kim kuzatishi mumkin bo‘lgan voqealarga asoslanadi:

“Der Ton macht Musik” (Tovushlar birlashib musiqa yaratadi)

Ularni o‘zaro qiyoslab, ana shu asoslarga ko‘ra o‘rganish, o‘zbek tilini kamyuterga kiritish uchun ba’za hosil qilishga, chet tillarini yanada o‘rganish va chet tilida o‘z fikrimizni ifodali, ta’sirchan ifoda etishga yordam beradi. Qolaversa,

tarjima orqali nemis maqollari bilan nutqimizni yanada boyitishga va o'zbek maqollarini jahonga chiqarishga yordam berishi, shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
4. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. Т.: Ўзбекистон, 1998.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Xalq so'zi. 11.12.2012. 240(5660).

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний, Туркий гулистон ёхуд ахлоқ, Т.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2004.
2. Араб мақоллари. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Сиддиқов Н.) – Т.: Сано стандарт, 2011.
3. Адабиётшунослик рўйхати. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Т.: Akademnashr, 2013.
4. Абдуллаев Х. Д. Халқ мақолларининг "Қутадғу билиг" потикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари – филол.фан. ном. Илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2005.
5. Butayev Z., Ismoilov Y., Karimov Sh. Nemischa-o'zbekcha lug'at.– T.: Fan, 2007.
6. Фитрат А. Танланган асарлар II жилд (Илмий асарлар) – Т.: Маънавият, 1994.
7. Гарриев Б. М. Туркменские пословицы и поговорки. – А., 1961.
8. Herbert Wiederroth. Wörterbuch. – Leipyig: 1961.

9. Horst und Annelies Beyer. Sprichwörter-lexikon – M.: Высшая школа, 1989.
10. Deutsches Sprichwörter-Lexikon. Herausgegeben von Karl Friedrich Wilhelm Wander. Wissenschaftliche Buchgesellschaft Darmstadt, 1964.
11. Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas// O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.2014 yil 4- aprel, № 14.
12. Erkin Vohidov. Faust, 1-2-kitob,T., 1972—1975.
13. Ismoilov Y., Karimov Sh. Usbekisch-deutsches Wörterbuch. – T.: Nihol, 2011.
14. Imyaminova Sh. Kamolova Sh. Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘atining tuzish prinsiplari.// Leksikografiya va frazeografiyaning dolzarb muammolari(nazariya va amaliyot) mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2014.
15. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
16. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л.: Наука,1979.
17. Kuvanova Sh. Nemis tili grammatikasidan universal qo‘llanma. – T.: Akademnashr, 2013.
18. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini (Hrsg. R. Conrad) – 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985. – S.228
19. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.:MUMTOZ SO‘Z, 2010.
20. Мадаев О. Собитова Т. Халқ оғзаки поетик ижоди. – Т.:Шарк, 2001.
21. Марқаев К., Маҳмудова Н., Хамраев Д., Sprichwörter Пословицы Мақоллар. – Т.: Meriyus, 2013.
22. Маҳмудова Н. Шарипова Н. Sprichwörter 101 Proverbs Пословицы Мақоллар . – Қ.: Нафас, 2008.
23. Nazarov P., Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar. – S.: 2001.
24. Nemischa-o‘zbekcha maqol va matallar lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh Imyaminova. Sh.Kamolova. – T.:MUMTOZ SO‘Z, 2013.
25. Nationale Druckhaus VOB National, Berlin. 1965.

26. Posha Ali Usmon. Faust. – S., 2010
27. Холматов Ш.С., Норбекова З.Т., Нурматов Д.Т. Немисча-ўзбекча-русча мақол ва маталлар луғати – Т.: Ўз ДЖТУ, 2013.
28. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: Musiqa, 2010.
29. Sprachfuhrer Deutsch-Uzbekisch-Russisc. Жамолова А. Ва б. – Т.: 1994.
30. Саримсоқов Б. Фолклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980 йил 4-сон Б. 37-45
31. Снегирев И.М. Русские народные пословицы и притчи-М., 1948.
32. Қўшоқов М. Сўз кўрки мақол// Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55 (5872)
33. Якубова М. Ўзбек мақолларининг ғарб халқлари фолклоридаги маънодош муқобиллари// Илм сарчашмалари, 2013 йил 7-8 сон
34. Ўзбек халқ мақоллари. (Нашрга тайёрловчилар: К.Имомов, Н.Комилов, Т.Мирзаев, Б.Назаров, Б.Саримсоқов, Ю.Султонов, Т. Тўла., Ш.Шоабдурахмонов – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
35. Ўзбек халқ мақоллари. Нашрга тайёрловчилар: Афзалов М., Худойберганов С., Иброҳимов С. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958.
36. Ўзбек халқ мақоллари. I жилд (А-О) – Т.:Фан, 1987.
37. Ўзбек халқ мақоллари. II жилд (Р-Х) – Т.:Фан, 1987.
38. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд(А-Р) – М.: Русский язык, 1981.
39. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.(Tuz: SH. Rahmatullayev. A.Hojiyev) – Т.:О‘qituvchi, 2011.
40. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома – Т.: ЎзСЭ бош редакцияси, 1990.
41. Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларида халқ ҳаётий тажрибасининг инъикоси – филол. фан.ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 1975.

42. Шораҳмедов Ш. Мақолларнинг пайдо бўлишига доир//Ўзбек тили ва адабиёти, 1971 йил № 4 Б – 31-34.